Islom dinini kengroq yoyish va mustahkamlash harakatida har bir qishloq va guzarda maktab, korxona, daloyixonalar, har bir shaharda qator-qator madrasalar ochildi.. Ana shu ilm dargohlarida talabalarni chiroyli, ta’sirchan so’zlay oladigan qilib tarbiyalash asosiy mashg’ulotlardan biri edi. O’sha davrdagi musulmon maktablarini asosiy maqsadi islom dinini targ’ib etish edi. Islomning bosh kitobi bo’lmish muqaddas «Qur’on»ning o’zi ma’lum darajada badiiylik xususiyatiga ega. Binobarin, dinni targ’ib etish adabiyotni o’rganish orqali amalga oshirilishi lozim bo’ladi. Qur’oni Karimdagi yashirin ma’jозиy ma’noni topish, undagi qator adabiy syujetlaarni tafsir etish, tushuntirish asnosida o’ziga xos adabiy ta’lim amalgalari.

oshirilardi. Buning ustiga, islomiy ma’naviyatning asosini tashkil etgan hadislarni o’rganish va uni ilm darajasida yuksaltirish, asosan, bizning o’lkamizda keng yolga qo’yilgan. At-Termiziyy, Al-Buxoriy singari mashhur muhaddislarning meroslari adabiy manbalar sifatida alohida qimmatga ega edilar va o’rganishning metodikasi tadqiq etilishi lozim edi. Madrasalarda mahsus «tadris»- metodika darslari mavjudligi shu bilan izohlanadi. To’g’ri, u paytlardagi adabiyot bugun biz tushunadigan adabiyotdan tamomila farq qilardi.

Buyuk vatandoshimiz Ibn Sino, Abu rayhon Beruniylar o’zlarining asarlarida adabiyotni o’rgatish zaruriyati haqida to’xtalganlar. Ibn Sinoning fanlarni qay tartibda tasnif qilinganligini ko’riboq, adabiyot o’qitishga qanchalik katta o’rin bergenligini tushunish mumkin. Xolbuki, Ibn Sino bu tasnifni o’zi kashf etgani yo’q, balki u mavjud xolatni ilmiy tizimga solgan. Shuningdek, o’sha davrdagi bir qator ilmiy asarlarning she’r bilan bitilganligi gap borayotgan davrda adabiy ta’lim naqadar yuksak bo’lganligidan dalolatdir. O’sha davrlarda ijod qilgan boshqa qomuschi allomalarining juda ko’philigi she’riy san’at bilan, badiiy ijod bilan shug’ullanganliklari ham adabiyot o’qitishga jiddiy e’tibor berilganligini mahsulidir.

XI asrda Rishtonda tug’ilib, Marg’ilonda tahsil ko’rgan, Samarqandda yashab mudarrislik qilgan Burxoniddin Marg’iloniyning 53 kitobdan iborat «Xidoya» asari bugungi kunda ham musulmon dunyosida fiqxning eng ishonchli manbalaridan hisoblanadi. Marg’iloniy asarlaridan birida ta’lim masalasiga ham to’xtalib, talaba o’tilgan darslarni puxta o’zlashtirishi uchun bugun o’tilganini 6 marta, kecha o’tilganini 5 marta, kechadan oldingi kuni o’tilganini 4 marta, 3 kun oldin o’tilganini 3 marta, 4 kun oldin o’tilganini 2 marta, 5 kun ildin o’tilganini 1 marta takrorlashi shart deb yozadi.

Alisher Navoiy Barkamool shaaxs va daxo adib sifatida adabiyot o’qitilishiga jiddiy e’tibor bermog’i tabiiy edi. «Lison ut-tayr»da yozadi:

Yonimga bundoq kelur bu mojaro,
Kim tufuliyat chog’i maktab aro.
Kim chekar aftol marxumi zabun.
Har tarafdin bir sabaq zibtiga un.

Emganurlar chin saboq ozoridin,
Yo «Kalamullax»ning takroridin.
Istabon tashxizi xotir ustod,
Nazm o'qiturkim ravon bo'lsin savod.
Nasrdin ba'zi o'qur ham doston,
Bu «Guliston» yanglig', ul «Bo'ston».

Navoiy bolaligini eslab, «Qur'on»ni o'rghanish yo'lidagi zahmatlar chekilgach xotiraani o'tkirlash maqsadida nazm, savodxonlikni o'stirish uchun nasr o'qitilganini tasvirlaydi. To'g'ri, o'rta asrlarda o'tilgan adabiyot darslari bizning tushunchamizdagi muayyan dastur yoki rejaga tayanilgan holda olib borilmagan. Lekin har bir bosqich uchun maxsus darsliklar yaratilgan. Adabiyotlar o'qituvchining tayyorgarlik darajasi hamda talabalarning imkoniyatlariga ko'ra tanlanadi. Maktablarda Sa'diyning «Bo'ston», «Guliston» asarlari, Xofiz, Navoiy, Yassaviy, Olloyorning badiiy yetuk tili sodda asarlari o'rgatilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshida 17 asardagina pedagogika mustaqil fan sifatida tan olindi va o'rganila boshlangan. Xususiy pedagogika, yaqin metodik ilmi esa XIX asrning II-yarmida paydo bo'la boshlagan. Xolbuki, bizning ajdodlarimiz dastlabki madrasalardayoq tadrис – metodikadan saboq olishgan.

Xalq pedagogikasida nafosatga, fasoxatga hamisha ustuvor ahamiyat berilgan. Xalqning «Yaxshi topib so'zlar, yomon qopib», «Qiyshiq og'izdan sassiq so'z chiqar», «Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, yomon gap bilan pichoq qinidan yoki musulmon dinidan», «Xom gap gapirib, pishiq gap eshitibdi» singari maqollari, so'z egasiga ayricha xurmatining o'zidayoq xalqimiz qadim zamonlardan beri so'z tarbiyasiga alohida e'tibor qilganligini ko'rsatadi. O'zbek o'z bolasiga so'zlash odobi haqida albatta, sabaq beradi. Millatimizga xos andishaning ildizi ayni shu adabiy ta'limning mavjudligiga borib taqaladi.

Adabiyotlar:

1. Zunnunov A. O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. «O'qituvchi».. 1973
2. Antologiya pedagogicheskoy misli Uzbekskoy SSR, - M. «Pedagogika», 1986.II
3. Forobiy A. She'r san'ati. – T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1979.
4. Avloniy A. "Turkiy Guliston yoxud ahloq". T. 1992.

ADABIY TA'LIM ASOSLARI.

Reja:

- 1.Adabiy ta'larning maqsadi.
2. Adabiyot o'qitishning vazifalari.
3. Adabiyot o'qitishning mazmuni.
- 4.Adabiyot o'qitish metodlari.

Tayanch tushunchalar:

“Adabiy ta'larning maqsadi”, “Adabiy ta'larning vazifalari”, “Adabiy ta'larning mazmuni”, “Komil shaxs”, “Badiiy kitob o'qiydigan o'quvchi”, “O'qiganni tushinadigan o'quvchi”. “Tahlillaydigan o'quvchi”, “Fikrini ifoda etadigan o'quvchi”, “Darslik”, “Dastur ”, “O'quv qo'llanmasi”, “Ko'rsatmali qurollar”

Xalqning madaniy savyasi o'sib borish bilan san'atning jamiyat hayotiga ,uning ma'naviy- psixalogik iqlimiga ham ta'siri ortib boradi.Shuning uchun ham jamiyat hayotining burilish davri bo'lgan hozirgi kunlarda adabiyotning xalq hayotiga

ta'siri juda katta Jamiyat a'zolarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagina emas,balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirishda,ijtimoiy turmushini yaxshilashda ham adabiyotning o'rni beqiyosdir.Chunki jamiyatda eng yaxshi qonunlar ham ularga amal qilingandagina biror ahamiyat kasb etadi.Binobarin,odamning qandayligi jamiyatning qandayligini belgilaydi.Jamiyat a'zolarga xos ma'naviy sifatlar esa ,asosan, abadiy ta'lim yoradamida shakllantiradi.

Jamiyat hayotini tashkil etishda xal qiluvchi ahamyatga ega bo'lganligi uchun ham o'rta, o'rta maxsus va oliy maktablarda adabiyot o'qitishni tubdan yaxshilash masalasi turli darajalarda qayta-qayta ko'rileyotir."Sharq yulduzi" jurnali 1987-yilning iyun sonida "Maktab va adabiyot" mavzuida bahs uyishtirib,unda adabiyot o'qitishni qayta ko'rishning dolzarb masalalarini ilk bor ko'tarib chiqandi.Mazkur bahs boshgandan buyon o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q bu orada adabiy ta'lim ikki bor yangilandi.

Maktabda adabiyot o'qitishdan maqsad yozuvchilar va ularning ayrim asarlari haqida o'quvchilarga ma'lumot berish emas,balki yoshlarda ezgu ma'naviyat shakllantirishdan iboratdir .Bu maqsadga o'quvchida badiiy adabiyotga mehr uyg'otish adabiyotning sehrli olami tilsimni topib berish orqaligina erishish mumkin. Darslikdagi va xrestomatiyalardagi asarlarni o'z talabalarga to'liq o'qitib ,ularning o'zlashtirishlarga ershigan,ammo ularni dasturda bo'lamagan boshqa badiiy asarlarni o'qishga o'rgata olmagan o'qituvchi mehnatkash, fidoiy bo'lsa-da, yaxshi muallim sanalmaydi.Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichi komil shaxsni shakllantirishni taqozo etadi.Bunday shaxssiz mustaqillik -omonat.Chunki, mamlakatning mustaqilligi unda yashayotgan kishilarning mustaqilligidan boshlanadi.Estetik va ahloqiy jihatdan yetarli tarbiya olmagan kimsa barkamol shaxs u yodda tursin,umuman shaxs bo`la olmaydi.

Adabiyot predmeti bilan tanishligi tufayli o'quvchilarni go'zallik hayratlantirishi, lol qoldirishi ,yomonlik, qabohatdan esa nafratlantirishi,qiynashi lozim.Yaxshi bilan yomon ,go'zal bilan hunuk , halol bilan harom farqlanmaydigan jamiyat tanazulga ,inqirozga mahkumdir .Maktab adabiyoti har qanday odam uchun o'zini tanish

vositasi,o'zini tanish esa o'zgani tushunishdan boshlanadi. Shuning uchun ham adabiy ta'larning vazifalari sifatida:oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi ,kitobxon o'quvchidan o'qiganlarini anglaydigan o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan tahlilay oladigan o'quvchi,tahlil qila biladigan o'quvchidan asar haqidagi fikrini og'zaki va yozma tarzda qiynalmay ifodalaydigan o'quvchi tarbiyalshdir deb belgilash mumkin .Adabiy ta'lim o'z oldidagi vazifalarni muvaffaqiyatli o'tashi uchun jamiyatning bugungi talablari, holati bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. Adabiyot predmeti o'rganish tufayli o'quvchilarda hosil qilingan tuyg'u,bilim, ko'nikma va malakalar ularning turmushiga jamiyat hayotidagi ishtiroklariga hizmat etishi, o'quvchilarda sag'lom dunyoqarash,ezgu hayotiy pazitsiya hosil qilish zarur.

Adabiyot boshqa o'quv predmetlardan farqli o'laroq odam uchun faqat mактабдаги о'qish davridagina emas,balki butun umri davomida o'рганилди. Adabiyot yaxshi o'qитilsа, mактабга kelganida eplab jumla tuza olmaydigan bola tilining ma'no nozikliklarini puxta egallab olади.Yozma va og'zaki tarzda ravon fikr ifodalarni o'рганади. Eng muhammi,pokiza ma'naviyat shakllanishi mumkin.Xullas,o'quvchilarning axloqiy -estetik jihatdan komil bo'lib tarbiyalanishi adabiyotga ko'p jihatdan bog'liq va ularni shunday qilib tarbiyalash adabiyotning vazifasidir.

Bilim o'z holicha hali etiqod emas.E'tiqodga aylanmagan bilim foydalanmay turgan imkoniyatdir xalos .Agar o'z vaqtida to'g'ri tarbiya ko'rmagan bo'lsa ,juda ko'p bilimdan odamlar e'tiqodsiz qolverishadi.E'tiqod odamning o'z fikriga ,qilgan hatti-harkatiga ahloqiy asos borligiga qat'iy ishonchi demakdir.Adabiyot e'tiqodni tarbiyalsh quroli hamdir .

Adabiyot o'qitish o'z oldida turgan maqsadga erishmog'I uchun uning mazmuni ham shunga movofiq bo'lishini talab qiladi.Hozirgi adabiy ta'larning mazmuni ,asosan dasturda ifoda etiladi.Bundan tashqari darslik ,o'quv va metodik adabiyotlar ko'rsatmali qurollar,yordamchi vositalar ham ta'lim mazmunini tashkil tadigan unsurlardir. Adabiyot dasturida sinfda qaysi asarlar ,qancha vaqt maboynida ,qaysi tartibda,qanday talqinda o'рганилши ,qanday asarlar o'quvchilar tomonidan

mustaqil o'qilishi belilab beriladi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi bo'yicha o'quvchi o'zlashtiriladigan bilimlar hajmi, bog'lanishli nutqni o'stirishga oid mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar ham ko'rsatiladi. O'qituvchi dasturga ijodiy munosabatda bo'lishi lozim. Dasturda rasmiy pedagogik hujjat, tegishli muasasalar tomonidan tasdiqlangan huquqiy asos bo'lsa-da, hech qanday o'zgarishlarni tan olmaydigan aqida emas. Shu bois o'qitivchi o'quvchilarining harakter hususiyatlarni hisobga olib, unga ayrim o'zgarishlar kiritish mumkin. O'qituvchi mavzuli reja dastur talablarini imkon qadar to'liq bajarish yo'lini o'ylashi kerak.

Dasturda 3 asosiy narsa bor :

- a) dastur materiali;
- b) materialni o'rganish tartibi;
- c) mashg'ulot miqdori.

Dastur materiali, birinchidan, tarbiyaning talabiga muvofiq bo'lishi, ikkinchidan, bolalarning yosh hususiyatlarga mos bo'lishi, uchinchidan, badiiy jihatdan yuksak bo'lishi kerak. Shu shartlarga amal qilinsa, taqdim etilgan badiiy material o'quvhilar tamonidan tez o'zlashtiriladi va ularning ma'naviyatiga kuchliroq ta'sir o'tkazadi.

Adabiy ta'lim mazmunini ifoda etadigan tushunchalar orasida adabiyot darsliklari alohida o'rinn tutadi. Adabiyot darsliklari o'quvchilarga hamma narsani aytib beradigan yo'sunda emas, balki ularni o'ylashga majbur etadigan, muayyan aqliy va ma'naviy zo'riqishni talab qiladigan tarzda yozilishi zarur. Shundagina ular o'quvchilarini o'ziga rom etadi va ularning ishchi kitoblarini aylanadi. O'zbek maktablarida darsliklar ko'p vaqtlar mobaynida o'quvchilar uchun ham yagona manba bo'lib keldi. Endilikda o'qituvchilar saviyasining pasayishiga olib keladigan bunday holga chek qo'yish vaqtি keldi. Shu bois o'qituvchilar uchun alohida didaktik ashyolar tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada dastlabki qadamlar qo'yildi.

Xullas, adabiy ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmunini birgalikda adabiyot o'qitishning asoslarini tashkil etadi. Jamiyat a'zolarning ma'naviy dunyosi ana shu asoslarning qanchalik mustahkam ekanligiga bog'liqdir.

Adabiyotlar:

- 1.Rez Z.Ya.Idr.Metodika prepodavaniya literature.-M.:”Prosvexenie” 1977.str.10-17.
- 2.Yo’ldashov K,Madayev O.,Abdurazzoqov A. Adabiyot o’qitish metodikasi.-T.:”Universitet”.1994
3. Yo’ldashov K, Adabiyot o’qitishning ilmiy nazariy asoslari .T.:”O’qituvchi”.1996
4. Yo’ldashov K. O’qituvchi kitobi.-T.: ”O’qituvchi”.1997

ADABIY TA’LIM METODLARI.

Reja:

- 1.Ta’lim metodi tushunchasi mohiyati.
2. Ijodiy o’qish metodi xususiyatlari.
3. Evristik metodga xos jihatlar.
- 4.Adabiyot o’qitishda tadqiqy metoddan foydalanish.
- 5.Reproduktiv metodning o’ziga xos tomonlari.
- 6.Muammoli ta’lim metodi.

Tayanch tushunchalar:

“O’qituvchi va o’quvchi faoliyati qirralari”, “Tashkilotchilik va uyushtiruvchilik faoliyati”, “Adabiy ta’limda o’quvchi shaxsining o’rnii”, “Evristik metod”, “Ijodiy o’qish”, “Tadqiqot metodi”, “Muammoli ta’lim”, “Reproduktiv metod va o’quvchi”.

Adabiy ta’lim metodlari o’quvchilarning ta’lim mazmunini o’zlashtirishga qaratilgan faoliyatini tashkil etishda o’qituvchining maqsadga yo’naaltirilgan didaktik xarakterlari tizimi tushunchasini o’z ichiga oladi. Boshqacha aaytganda, ta’lim metodi o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikdagi faoliyatini anglatib, unda o’qituvvchi o’quvchining o’rganish ob’yekti ustidagi faoliyatini tashkil etadi va buning natijasida o’quvchi tomonidan ta’lim mazmunini o’zlashtirish jarayoni amalga oshadi.

Metod tushunchasi haqidagi dastlaaabki qarasqlar XIX asr boshlarida yashab o’tgan rus pedagogi F.I.Buslayevga mansub bo’lib u adabiyot o’qitish metodlarini geyristik va tarixiy-dogmatik tarzida 2ga bo’lgan edi. Olim geyristik shaklida nomlagan mmetod hozirgi “evristik” metodga to’g’ri keladi. XIX asrning V.Ya.Stoyunin, V.I.Vodovozov, N.G.Chernishevskiy kabi matafakkirlari ta’lim matodlari borasidagi o’z qarashlarini bayon etganlar.

Sho’rolar davrida ta’lim metodlari masalasi alohida dolzarblik kasb etdi. XX asrning 20-yillarida savol metodi, laborotoriya metodi, laborotoriya-mehnat metodi singari o’quvchilarning badiiy matn ustida mustaqil ishlashlariga asoslangan metodlar tizimi yuzaga keldi. Bu metodlar o’quvchilarni ishlashga, o’rgatishga qaratilgan bo’lsa-da, o’quvchilarning faoliyatini deyarli yo’q darajaga keltirgan, o’quvchilarning og’zaki nutqini aniqlash, bahalash va rivojlantirish e’tibordan tashqarida qoldirilgan edi. Shu bois o’tgan asrning 30-yillaridan e’tiboran bu metodlar adabiy ta’lim amaliyotidan chiqib ketdi. Zamonaviy rus adabiyot o’qitish metodikasining taniqli vakili V.V.Golubkov tomonidan XX asrning 40-yillarida adabiy ta’limning 1) leksiya; 2) adabiy suhbat; 3) mustaqil ishlar yoki ma’ruza va insholar; 4) izohli o’qish kabi metodlari borligi ko’rsatilgan.

XX asrning 60-yillarida “Didaktika asoslari” nomli kollektiv tadqiqot mualliflari metodlarni: nutqiy, ko’rsatmali va amaliy tarzida uchga bo’lishdi. Bu tarzdagи tasnidfa o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining shakli, bilimning manbai hisobga olinadi. Lekin bunda faoliyatining mohiyati, mazmuni ko’zda tutilmaydi. M.N. Skatkin va I.Ya.Lerner kabi taniqli metodist olimlar esa ta’lim metodlarini sinflarga ajratishda o’quvchilarning bilish faoliyatiga tayanish lozim deb

hisoblashadi¹. I.Lerner rahbarligida Moskvada nashr etilgan “O’rta maktab didaktikasi” kitobida ta’lim metodlari 1.Tushuntirish – namoyish etish metodi. 2. Reproduktiv metod. 3. Muammoli bayon metodi. 5. Tanqidiy metod tarzida tasnif etilgan. XX asrning 80-yillarida N. Kudryashev tomonidan 1. Ijodiy o’qish. 2. Evristik metod. 3. Tadqiqiy metod. 4. Reproduktiv metod tarzida tasnif etilgan. Shu kitobda: “O’qitish jarayoni 2 yuklama harakterga ega: o’qituvchi o’qitadi, o’quvchi o’qiydi. Tabiiyki, o’qituvchi va u o’qitadigan o’quvchilarining maqsadlari va vazifalari o’ziga xos xususiyatga ega²”, - deydi taniqli rus metodisti N.Kudryashev. Ko’rinadiki, adabiyot ta’limga, umuman, o’qitish jarayonida bu hil yondashuv ancha eskirib qolgan. Binobarin, olimning adabiy ta’lim metodlari borasidagi qarashlariga ham tanqidiy yondashish lozim.

Olmon olimlari tomonidan yaratilgan va 1977-yilda Berlinda chop etilgan “Olmon adabiyotini o’qitish metodikasi” nomli fundamental tadqiqotda badiiy matnni o’zlashtirishning quyidagi bosqichlari ko’rsatilgan: badiiy asarni ilk qabul qilish, asarni chuqur idrok etish, badiiy matnni takror idrok etish va uning yangi alaqadorlik jihatlarini topish.

Badiiy matnning idrok etilashiga doir xuddi shu bosqichlarga muvofiq tarzda badiiy asarni o’zlashtirishning ham metodi borligi ko’rsatilgan:

- 1.Ijodiy qabul qilish metodi.
- 2.Tahlil va talqin qilish metodi.
- 3.Umumlashtirish metodi.

Bizning nazarimizda ham adabiyot o’qitish jarayonida o’qituvchi va o’quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati harakterini olmon olimlari ko’rsatgan belgilar asosida tayin etish to’g’riga o’xshaydi. Negaki, bu tasnif faqat sub’yektlarning faoliyatini shakllarinigina emas, balki asosiy ob’yekt-badiiy asr o’zlashtirilishi bosqichlarini ham o’z ichiga olganligi bilan diqqatga molikdir. Shunga ko’ra, ijodiy qabul qilish metodi badiiy asarni o’qishnigina emas, balki uning o’zlashtirishning tinglash, korish singari shakllarini ham qamrab oladi. Bu metodning

¹ Lerner I.Ya., Skatkin M.N. O metodax obucheniya. “Sovetskaya pedagogika”, 1965 №3, Lerner I.Ya. Didaktechiskaya sistema metodov obucheniya.-M:1976, Didaktika sredney shkole. –M: 1975 .

² Kudryashev N.I. Vzaimosvyaz metodov obucheniya na urokax literaturov.-M : “Prosvexeniye”, 1981, S.9.

maqsadi- o'rganilayotgan badiiy matndan o'quvchilarning qattiq ta'sirlanishini ta'minlash asosida keyinchalik tobora chuqurlashib boradigan tarzda o'zlashtirishlariga erishish. Badiiy asarning ijodiy qabul qilash jarayoni ba'zi zarur o'rnlarda izohlar, tushunchalar, eslatmalar bilan bo'lib turishi mumkin. Badiiy asarni ijodiy qabul qilish metodi matnni o'zlashtirishning birinchi – badiiy asarni ilk qabul qilish bosqichiga muofiq keladi va adabiy ta'lim yaxshi yo'lga qo'yilgan hollarda undan ancha ustun turadi.

Tahlil va talqin qilish metodini boshqacha qilib izlanish yoki tadqiqiy metod ham deyish mumkin. Chunki bu metodda badiiy asar mohiyatiga , imkon qadar chuqur kirish ko'zda tutiladi.Bu metodda badiiy matnning badiyligini ta'minlagan omillar aniqlangani singari o'quvchilarda matndagi nozik, ramziy , sirli jihatlarini anglash ko'nikmasi shakllantirilashi ham ko'zda tutiladi.

Umumlashtirish metodi adabiy ta'limdagi eng samarali usul bo'lib, unda ikki tomonlama faoliyat: o'quvchining aqliy va hissiy zo'riqishi va badiiy matnning badiyligini ta'minlagan omillarning aniqlanish jarayoni qo'shilab ketadi. Badiiy asar o'rganilibgina qolmaydi balki uning millat estetik tafakkuridagi o'rni, o'zga asarlarga munosabati, muallif bilan badiiy asarning bog'liqligi aniqlanadi. Shuningdek , o'z hayotiy tajribasi bilan o'rganilayotgan badiiy asar o'rtasida ko'prik, aloqadorlik o'rnatiladi.

Shuni hisobga olish kerakki, har qanday metod o'zida abyektivlik va subyektivlikning birligini ifodalaydi. Chunki , metodda abyektiv ya'ni, ijrochining istagidan tashqaridaginarsaning mavjudligi hamda ijrochi subyektning abyektiv tarzida mavjud bo'lgan narsaga ta'sir ko'rsatish yo'llari aks etadi.

Adabiyotlar:

- 1.Kudryashev N.I. Vzaimyusvyaz metodov obucheniye na urokax leteratiru.-M “Prosvexeniye”,1981.

- 2.Rez Z.Ya. Metodika orepodovaniya literaturu.-M: “Prosvexeniye”1977.
- 3.Zunnunov A. va boshqalar Adabiyot o’qitish metodikasi. _ T. “O’qituvchi”1992.
- 4.Yo’ldoshev Q., Madayev A., Abdurazzoqov A., Adabiyot o’qitish metodikasi.T. “Universitet”1994.
- 5.Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O’qituvchi”1994.

ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALARINI O’RGATISH.

Reja:

- 1.Nazariy tushunchalarni o’rganishning pedagogic asoslari.
- 2.Badiiy matnni idrok etishda nazariy ma’lumotlarning ahamiyati.
- 3.Adabiyot nazariyasi va adabiyot tarixining aloqadorligi.
- 4.Adabiy nazariy tushunchalarni o’rganishda o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Tayanch tushunchalar: Adabiy ta’lim va adabiyot nazariyasi, nazariy bilim va badiiy asarni anglash, badiiy savodxonlikning ilmiy asosi, adabiy ta’lim va estetik zavq, nazariy bilim berishda o’quvchilarning ruhiy jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish.

Badiiy asar o’qishdan maqsad, ko’pincha, badiiy zavq olish deb hisoblansada, adabiy ta’lim uchun bu bosh muammo bo’lolmaydi. Bu vaqtda: “Bizga zavqlanishning o’zi ozlik qiladi, biz bilishni istaymiz: biz uchun bilimsiz zavqlanish yo’q”, - deb yozgandi V.G.Belinskiy “Tanqid haqida nutq” maqolasida. Darhaqiqat, nazariy tushunchalarsiz adabiyot o’qitish to’liq bo’lmaydi. Adabiyot nazariyasidan muayyan miqdordagi bilimga ega bo’lmasan o’quvchining badiiy asarni yetarlicha idrok etishi mumkin emas. Adabiy-nazariy tushunchalar adabiyot kursining tarkibiy qismigina emas, balki adabiyot o’qitishning o’ziga xos ilmiy asosi hamdir.

Adabiyot nazariyasidan ma'lumotlarga ega bo'limgan o'quvchi badiiy adabiyotning olmos qirralarini to'liq xi seta olmaydi, badiiy so'zning joziba qudratini tuya olmaydi. Binobarin, ahloqiy-estetik tarbiya bobida ma'lum ma'noda oqsoqlanish ro'y beradi. O'quvchi oddiy so'zning badiiy so'zdan, tasvirdan farqini ajrata olsagina adabiy matndan chinakam baha oladi va unga to'g'ri baho beradi.

O'quvchilar yuqoriqoq sinflarga o'tgan sayin ularning adabiyot nazariyasiga oid fikrlari chuqurlasha boradi. Ular endi badiiy asarga ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida qataydigan bo'lishadi. U yoki bu asarning yozilishi, asarda u yoki bu voqeanning, qahramonning tasvirlanishi jamiyat hayotidagi u yoki bu davriy bosqich bilan izohlanishini tushunadi. Ayni bir yozuvchi voqeylikni boshqacha emas nega aynan shunday tasvirlaganligi sababini anglay boshlaydi. O'quvchilarning shu xildagi bilimlarga ega bo'lishi badiiy asarning bola emotSIONAL va aqliy dunyosiga ta'sir darajasini oshiradi.

Adabiyot o'qituvchisi nazariy ma'lumotlarning zarurligini unutmagan holda bolalarda nazariy tushunchalarning badiiy matndan ajratmasdan hosil qilishga urinish zarur. Odatda, o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni tuzukkina o'zlashtirib olsalar-da, bilganlarini badiiy asar tahlilida tadbiq eta olmaydilar. Chunki, ular nazariy qarashlar taqbiqiy yo'nalishida shakllantirilmagan bo'ladi. Xolbuki, nazariy tushunchalarni o'rganishdan maqsad tahlilni chuqurlashtirish, badiiy asarni teranroq idrok etishdan iboratdir.

Adabiy-nazariy tushunchalarni singdirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga jiddiy e'tibor berish zarur bo'ladi. Negaki, o'z vaqtida ta'limdagi sherigining imkoniyati hisobga olingan xoldaqilinmagan

pedagogic tadbir samara bermaydi. Tuyuq, chiston ruboiy, to'rtlik , murabba kabi adabiyot tushunchalarini bilmay turib bu janrlardagi asarlardan bahramandlik o'quvchilarning tuyg'ulariga ham, aqliga ham deyarli xech narsa bermaydi.

Adabiyotlar:

- 1.Dolimov S., Ubaydullayev X., Ahmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "O'qituvchi"1967. 211-bet.
- 2.Rez Z.Ya. Metodika prepodavaniya literaturu.- M.: "Prosvexeniye", 1977.
3. Zunnunov A., Xotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 1992
4. Zunnunov A., Xotamov N Adabiyot nazariyasi.-“O'qituvchi”1978.
- 5.Zunnunov A. 5-10-sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish.-T.: “O'qituvchi”1967..
- 6.Yo'ldoshev Q, Madayev A, Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: “Universitet”, 1994.

Adabiy ta'limdi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Reja:

- 1.Adabiyot o'qitishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishning pedagogik zaruriyati.
2. 5-6-sinflarda adabiyot darslarini uyuştirishning o'ziga xos xususiyatlari.
3. 7-9-sinflatda adabiy ta'limi yo'lga qo'yishga xos jihatlar.

Tayanch tushunchalar:

“Adabiy ta’lim va fiziologiya”, “Adabiyot o’qitish va psixologiya”, “5-6-sinflarda adabiyot o’qitishning o’ziga xosligi”, “7-9-sinflarda adabiyot o’qitishning o’ziga xosligi”, “O’rta maxsus ta’lim muassalarida adabiy ta’lim”, “Oliy adabiy ta’limni tashkil etishga xos jihatlar”.

Shaxsni “umuman” tarbiyalab bo’lmaydi, balki har qanday shaxs aniq talablar asosida , aniq jamiyat uchun tarbiyalanadi. Tarbiya aniqlikni sevadigan va unga tayanadigan jarayondir. Shu boisdan ham biron –bir ahloqiy fazilatni umumiylar tarzda qaror toptirib bo’lmaydi. Ayni bir pedagogik chora turli yoshdagini odamlarga , nisbatan qo’llanilganda turlicha natijalarni beradi. Ahloqiy-estetik tarbiyaning qudrat quroli hisoblanmish adabiyot o’qitishda ham turli sinflardagi o’quvchilarning yosh hususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. O’quvchining yoshiga mos bo’lmaidan material uni toliqtiradi, qiziquvchanligini susaytiradi. Adabiy materialga qiziqmagan, buning ustiga adabiy asarni o’rganish jarayonida bolalarni toliqtiradigan dars besamara darsdir.

Adabiyot o’qitishning vazifasi o’quvchilarda mustahkam ahloqiy sifatlari qaror toptirish, ularni go’zallikdan ta’sirlanadigan, unga intiladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Adabiyot dasturida ham ana shu maqsadlarga hizmat qilishi lozim bo’lgan materiallar 2 qismga bo’lingan holda beriladi: 1.Adabiy materiallar. 2. Didaktik materiallar.

Adabiy materiallar- badiiy asarlar yohud ulardan olingan parchalar bo’lib, dasturda ularning talqin tarzlari ham beriladi.

Didaktik materiallar- adiblarning tarjimai hollari, badiiy matnni o’rganish bo’yicha savol va topshiriqlar , metodik maqolalar, adabiyot nazariyasiga oid ma’lumotlar obrazlariga berilgan harakteristika kabilarni o’z ichiga oladiki, adabiyot o’qitishda buning ham katta ahamiyati bor. O’quvchini qanadagi yoshdagini o’quvchilar

bilan ishlayotganligi, bolalarning jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini aniq hisobga olgandagina dastur talablarini bajara oladi.

Adabiyot darslarini uyushtirishda 5-6-sinf bolalariga xos biologik , psixologik va pedagogik xususiyatlarini , albatta, hisobga olish zarur. 5-sinf o'quvchisi ertaklar olamiga yaqin ekanligini , uning uchun hayvon va o'simliklarning so'zlashi, shamol, momaqaldiroq, chaqmoq kabi tabiat hodisalarining odam shaklida ko'rinishi, normal holligini unutmaslik kerak.

Bu sinflarning o'quvchilari etik, ruchka, sichqon kabi narsalar odamday harakat qilib, odamday so'zlashi tasvirlangan multfilmlarni ko'rib ulg'aygan. Demak, bu sinflardagi adabiy materiallar ham shunga yarasha , ertak va multfilmlarning davomiday boshlangani ma'qul.

Aytish kerakki, adabiyot bo'yicha amaldagi dasturlarda shu talab imkon darajasida hisobga olingan. Shu sababdan ham 5-6-sinflarning "Adabiyot" darsliklarida badiiy matnlar xranalogiya tartibda emas, balki o'quvchida shakllantirilishi lozim bo'lgan agloqiy sifatlarni aks ettiruvchi ruknlar asosida joylashtirilgan. Darslikdagi badiiy matnlar "Hikmat udrdonalari", "Ertaklarning sehrli olami", "Afrsonalar sadosi", "Mumtoz adabiyotga sadoqat", "Bolalikning begubor olami", "Vatanni sevmoq iymondandir", (5-sinf) , "Bola uchqur hayol sohibi", "Kechagi kun-saboq", "So'zda hikmat bor", "Tuyg'ularning kamalak rangi" (6-sinf) kabi ruknlar atrofiga birlashtirgan. Bu sinflarda adabiy materiallarni tizimga solishda asar tilining soddaligi, voqeaband asarlarda syujet rivojining shiddatkorligi va oson esda qolishi hisobga olinishi zarur. O'quvchilarning yoshlari ulg'ayib, hayotiy, aqliy va hissiy tajribalari ortib borgan sari ularga beriladigan adabiy materiallar ham murakkablashib boradi. 5-sinf adabiyot darslarida folklor materiallar birmuncha keng o'rganiladi. Folklor namunalari 11,12 yashar bolalar tushunchasiga yaqinligi ularning ruhiy halatiga mosligi bilan o'quvchilarni jalb qiladi va ularga tez-tez yetib borib kuchli ta'sir ko'rsatadi. 6-sinfdagи bolalar ham o'ziga xos ruhiy – jismoniy hususiyatga ega. Bu yoshda o'quvchilar mustaqil ko'rinishga , o'ziga xos tavakkal qarorlar qabul qilishga o'ch bo'lishadi. Binobarin, adabiyot o'qitishda ham shu hil

sifatlar hisobga olinishi zarur. Shuning uchun ham yangilangan 6-sinf “Adabiyot” darsligida o’tkir syujetli avantyuralariga va nozik ruhiy tahlillarga boy “Gulliverning sayohatlari”, “Shum bola”, “Sariq devni minib”, “Afandining qirq bir pashshasi”, “Yulduzlar mangu yonadi” kabi asarlar kiritilgan. Shuningdek bu yoshdagi o’smirlarda hissiyot, sezishlar tarbiyasiga ham alohida e’tibor zarurligidan bir o’qishda tushunilishi og’irday ko’rinsa-da, ruhiyar manzaralari aks ettirilgan, murakkab tuyg’ular tasvirlangan asarlar ham kiritilgan.

Maktabda 7-sinfdan boshlab adabiyot o’qitish ancha murakkablashadi. Bu sinf talabalari adabiy o’qish bilan birgalikda adabiyot nazariyasi mualliflar tarjimai holi bilan kengroq tanishib boradilar. Bolalarda badiiy asarni, undagi obrazlarni tahlillash ko’nikmalari mukammallahib boradi. Bu davrda mumtoz adabiyot namunalarini o’rganishga kengroq o’rin beriladi.

5-7-sinflarda adabiyot o’qitishning o’ziga xosligi shundaki, bir tomonidan, u boshlabg’ich sinfning davomi, ikkinchi tomonidan yuqori sinflarda adabiyot o’qitish uchun asos. Bu sinflarda asosiy e’tibor adabiy asarni o’qish va shu asosda o’quvchilarga ahloqiy – estetik tarbiya berishga qaratiladi. Agar 5-7-sinfdan bolalarda badiiy asarga qiziqish uyg’otilmasa, undan keyingi sinflarda o’quvchilarning adabiyotni sevishlari gumon. 10,14 yoshlarda bola o’ta qiziquvchan, kattalarga taqlidchan bo’lishadi, Kattalarday bilimdon, aqli, so’zamon, kuchli ko’rinishni istashadi. Adabiyot o’qituvchi bolalardagi mana shu hususiyatdan foydalanishi ularning kuchini badiiy asar o’qishga yo’naltira bilishi, shu yo’lgina katta, kuchli, bilimdon, aqli bo’lishiga olib borishiga ishontirishi lozim.

8-9-sinf o’quvchilarida analitik fikrlash kuchliroq bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar o’zlariga tashqaridan qarashga urinishadi. Binobarin, bu sinflarning o’quvchilariga ruhiy tug’yonlar, nozik hissiyotlar aks ettirilgan asarlarni tashkil etish mumkin. Bu yoshdagi o’quvchilarning o’zini taftish etishga odatlantirish, o’z kamchiliklarini idrok etishga o’rgatish uchun shunga hizmat qiladigan badiiy matnlar tavsiya etilishi kerak. O’spirinlikka davogar bo’lib turgan bolalar nozik sezimlar, bilinar – bilinmas badiiy ishoralarni anglash qobiliyatiga ega bo’ladi.

O'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rta maktab talabalardan bir müncha farq qilib, bir xil yoshdagi o'spirinlardan iborat bo'lmaydi. Ta'limni uyushtirishda shu xol hisobga olinishi, akademlitsey va kollejlarni o'rta va oliy maktab orasidagi ko'prik ekanı hisobga olinishi zarur. Demak, adabiyot o'qitishda faqat shaxs ma'naviyatini shakllantirish maqsadlaridan emas, balki o'spirinlar egallaydigan kasb malakalarini qaror toptirish maqsadi ham ko'zda tutilgani ma'qul bo'ladi. Bu bosqichda o'rganiladigan badiiy asarlarning milliy adabiyotdagi o'rni ijtimoiy ahamiyati asosiy mezon bo'lmog'i zarur.

Oliy adabiy ta'lim to'liq professional filologlar tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lishi va unda milliy adabiy jarayondagi barcha bosqichlar, barcha diqqatga molik asarlar matni bilan tanishib, tahlil va talqin etish lozim. Bulardan tashqari bo'lajak filologlar jahon adabiyotining eng sara namunalaridan yaxshi habardor bo'lishi, dunyo adabiyotidagi asosiy oqimlar hamda yo'nalishlarni bilishi zarur. Shuning uchun ham bu bosqichda badiiy matnning o'zi bilan tanishishiga alohida e'tibor qaratilishi joiz.

Adabiyotlar:

- 1.Dolimov S., Ubaydullayev X.,- Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: “O'qituvchi”, 1967.
- 2.Rez Z.Ya. Metodika prepodavaniya literaturu.- M.: “Prosvesheniye”, 1977.
- 3.Yo'ldoshev Q, Madayev A, Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: “Universitet”, 1994.
- 4.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: “O'qituvchi”1996

IJODKOR TARJIMAI HOLINI O'RGANISH.

Reja:

1. Adib umr bayonini o'rganishning pedagogik zaruriyati.
2. Turli siflarda yozuvchi tarjimai holini o'rganish.
3. Yozuvchi umr bayoni bilan uning asarlari o'rtasidagi aloqa.
4. Ijodkor tarjimai xoli va uning uslubi o'rtasidagi aloqadorlik.

Tayanch tushunchalar:

“Umrboyon va badiiy matn”, “Adib tarjimai xoli va uslubi”, “Umrbayon - tarbiya vositasi”, “Umrbayon- asarni tushunish kaliti”, “Adib tarjimai xolini o'rganish va o'quvchilarning yosh xususiyatlari”.

Maktabda badiiy asar o'rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. Badiiy asar tahlilidan ilmiy xulosalar chiqarmoq uchun yozuvchining pozitsiyasining tushunish kerak bo'ladi. Buning uchun esa ijodkorlarning tarjimai xoli bilan tanish bo'lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo'lganligidan habardor bo'lish mumkin. Maktab adabiy ta'limida yozuvchilar umr bayoni 2 sababga ko'ra o'rganiladi: 1) Adiblar millat ahlining diqqat e'tiborida turgan kishilar, ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o'quvchilar uchun namuna bo'ladigan jihatlar ko'p. Binobarin, yozuvchi hayoti o'quvchilarga ma'naviy namuna maktabi sifatida o'rgatiladi. 2) Adiblarning hayot yo'li, sa'jiyasi asarlarida o'z nuqsini qoldiradi. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo'llari va shaxsiyatları borasidagi ma'lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit hamdir.

Yozuvchi biografiyasi haqidagi ma'lumot hamma sinflarda ham beriladi. Ammo o'smir yoshidagi o'quvchi bilan o'spirin yoshidagi o'quvchining adiblar tarjimai xolini o'rganish o'ziga xos didaktik jarayonlar tarzida kechadi.

O'smir yoshidagi bolalar yoki 5-6-sinflarning o'quvchilari hali adabiy asarlar yaratish badiiy zaruriyat ekannini unchalik tushunmaydilar. Buning ustiga ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etishini ham to'liq anglamaydilar. Shu sababdan ham 5-8-sinflarning darsliklarida yozuvchilar haqida o'quvchilarga eng umumiy ma'lumotlar berish bilan kifoyalanadi. Odatda, 5-8-sinflarda adibalrning biografiyalarini o'rganishiga alohida soat ajratilmaydi. Binobarin, yozuvchi haqida uzoq to'xtalish zaruriyi yo'q. Shuning uchun darsliklarda o'quvchilarning o'zları o'qib olishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlar beriladi. Bu yoshdagi o'smirlarda hissiy bilish kuchli bo'ladi, abstrakt tafakkur, bilishning diduksiya usuli yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Shu bois ko'rgan, sezgi organlari orqali qabul etilgan tushunchalar mustahkam o'zlashtiriladi. Sabab- oqibat bog'lanishlari haqidagi mulohazalar unchalik anglashilmasligi mumkin.

O'smir yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari boshqacha rivojlangan bo'ladi. Ularda inson shaxsining jamiyat tomonidan shakllanishi, bir jamiyatda turib, yashab turib, undan tashqarida turishning imkonsizligi haqida muayyan qarashlar mavjud. Demak, yozuvchi shaxsiyati, ma'naviyati bu sinf o'quvchilarining axloqiy sifatlariga ta'sir etishi mumkin. Yuqori sinflardagi mashg'ulotlarda o'qituvchi adib shaxsiyati qirralarining, u qachondir boshidan kechirgan voqealarning asarlarda qay tarzda namoyon bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Katta maktab yoshidagi o'quvchilar o'zları intensiv ravishda shaxs sifatida shakllanib borayotganliklari uchun yozuvchilar shaxsiyatiga astoydil qiziqadilar. O'qituvchi adib qarashlarning, kayfiyatlarining tadrijiy yo'li bu yo'lning asarlarda aks etishi kabi muammolarni yuqori sinf talabalariga aniqlab olgani ma'qul. Bu xol, birinchidan o'quvchilarning avval bilganlarini esga solib, ma'ruzani o'zlashtirishda bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan, berilayotgan bilim mustahkam ilmiy poydevor ustiga qurilib, yaxshiroq esda qoladi. O'quvchilar o'yashga majbur bo'lishadi. O'yash jarayoni ularning yangi bilimlarni o'zlashtirishlariga ham qo'l keladi.

O'qituvchi adib haqida gapirar ekan uning hayotidagi u yoki bu voqeani shunchaki sodir bo'lgan fakt sifatida emas, balki bo'lajak sanatkorning ijodiy

qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishiga turtki sifatida talqin etsa maqsadga tushuntirishi zarur. Bu sinf o'quvchilari bir yozuvchi uslubining boshqasnikidan farqli ekanligi sabablatini adiblar voyaga yetgan muhitdan, ularning harakter xususiyatlaridan qidirishni o'rganishlari kerak.

H.Olimjonning dilbar she'riyati, G'.G'ulomning tarixiy xulosalarga yo'g'rilgan qasirg'ali falsafiy asarlarining yaratilishini ularning tarjimai xollari, harakter xususiyatlarining o'ziga xosligi bilan bog'lash, ulardan keltirib chiqarish muhimdir. Odadta, o'quvchilar turli asarlarning qahramonlarini , ularning shaxxsiyatidagi bir-biridan farqli xususiyatlarini bir muncha yaxshi tadqiq etadilar.

Gulnor Kumush bilan adashtirilmaydi. Ammo bu o'ziga xoslik ildizi o'sha obrazlarni yaratgan adiblarning shaxxsiyatidagi o'ziga xosliklarga bog'liq ekanligi o'quvchilar nazaridan chetda qoladi.

A.Qahhor shaxxsiyatida mavjud bo'lган prinsipiallik , murosasizlik, halollik, uning asarlarida qay tarzda aks etganini o'quvchilar bilishsa, adabiyot uchun, bolalar ma'naviyati uchun juda foydali bo'ladi. Cho'lpon , Hamza, Qodiriy kabi murakkab taqdirli ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganish , ularning asarlarini tushunish kalitigina emas, balki bolalar ma'naviyatini shakllantirish yo'li hamdir.

9-sinfdan e'tiboran adiblarning tarjimai xolini o'rganishga alohida vaqt ajratiladi, ularning hayotidagi muhim hodisalargina emas, balki ijodiy qiyofalarning shakllanish bosqichlari ham tekshiriladi. O'quvchilar shu sinfda adib shaxsi bilan uning asari o'rtaсидаги bog'lanishni ilg'aydigan bo'ladi. Adabiyot o';qituvchisi yuqori sinflarda yozuvchining hayot va ijod yo'li haqida va'z o'qishdan oldin o'quvchilar avvalgi sinflarda adiblarning hayot va ijod yo'llari haqida nimalar o'rganganliklarini muvofiq bo'ladi. Yozuvchining hayoti o'rganilar ekan uning o'ziga zamondosh, O'zidan oldin o'tgan va keyin paydo bo'lган ijodkorlarga ta'siriga ham o'rni bilan to'xtalish joiz.

Adabiyotlar:

- 1.Dolimov S., Ubaydullayev X., Ahmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "O'qituvchi"1967

2. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish mtto`dikasi. T. “Yangi avlod” 2006.
3. Yo`ldoshev Q, Madayev A, Abdurazzoqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi.-T.: “Universitet”, 1994.
4. Yo`ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: “O`qituvchi” 1996
5. Yo`ldoshev K. O`qituvchi kitobi.-T.: “O`qituvchi.” 1997.

IFODALI O`QITISH METODIKASI

REJA:

1. Ifodali oqishning pedagogik-psixologik asoslari.
2. Ifodali o`qish-estetik tarbiya vositasi.
3. Ifodali o`qish-ta`lim berish vositasi.
4. Ifodali o`qishga o`rgatish metodikasi.
5. Sinfdan tashqari ishlar va ifodali o`qish.

Tayanch tushunchalar:

“Ifodali o`qish va uning zaruriyati”, “adabiy ta`lim va hissiyot tarbiyasi”, “ifodali o`qish orqali tarbiyalash”, “ifodali oqish-ta`lim berish omili”, “ifodali o`qish va to`g`ri o`qish”, “ifodali oqishga o`rgatish”.

Barkamol-insonni tarbiyalash vositalari orasida adabiyot o`rgatish old o`rinlardan birini egallaydi. Badiiy adabiyot bilan oshno bo`lgan, uni chuqur his qilgan, badiiy matnda aks ettirilgan tuyg`ularni anglagan odam kamolot yo`liga kirgan bo`ladi. Bunga erishish uchun o`quvchilarni badiiy asarlarni tushunishdan tashqari uni idrok etadigan, chuqur his qiladigan tarzda tarbiyalash kerak. Go`zallikdan lazzatlanish, chiroyli ko`rinishdan lol qolish, cheksiz oliyjanoblikdan xayratlanish ezgu odamga xos fazilatlardir. Shunday fazilatlar egasi xunuklik va illatlar, olchoqlik va yomonliklar oldidan beparvo o`tib ketolmaydi. Kurashchan estetik shu tariqa paydo bo`ladi.

Adabiyot o`qitishdan asosiy maqsad o`quvchilarda yuksak ma`naviy fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir. Keyingi vaqtida o`quvchilarning axloqliy va

badiiy tarbiyasida qator kamchiliklar mavjud ekan. Bunda adabiyot o'qitishdagi nusonlarning ham ta'siri bor. Chunki sho'rolar davrida amalda bo'lgan adabiyot dasturlari badiiy asarlarni emas, u haqdagi nazariy fikrlarni o'rgatishga mo'ljallangan edi. Adabiyot darslarida asosiy narsa asar g'oyasini bilish deb qaraladi. Bu asari Bilan falon adib, falon davrdagi og'ir hayotni mana bunday ifodalaydi, manovi she'ri bilan pismadon shoir mehnatkashlar baxtsiz turmushini ana shunday ko'rsatadi qabilida xulosa chiqariladi. Shu sababdan turli asarlar tahlili bir biridan kam farq qilardi. O'quvchilarga badiiy asarlar bir qolipdan chiqqanday bo'lib tuyular, ularni o'qimay turib ham fikr bildirish mumkin degan xulosaga olib kelardi. Bu xil g'oyaviy yondashuv badiiy asarga qiziqishni, undan lazzatlanishni, undagi so'zlar tovlanishini payqashni qiyinlashtiradi. Endilikda adabiyot dasturlari o'zgardi. Adabiy ta'lim mazmuni yangilandi va sog'lom ko'rinish kasb etdi. Milliy adabiyotning eng sara asarlari o'rganilishi ko'zda tutiladigan bo'ldi. Ana shunday sharoitda badiiy asarlarga yondashuvda, idrok etishda, tushunish va tahlil qilishda oldingi kamchiliklarga yo'l qo'yilmaslik uchun adabiyot darslarida ifodali o'qishga alohida ahamiyat berish zarur. Ifodali o'qish, ayniqsa, 5-8-sinflarda asarning emotsiyal ta'sir kuchini oshirishda, uni o'quvchilarning ko'ngil mulkiga aylantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quvchilarning tashqi ta'sirlariga tez berilishi, diqqatining bo'linuvchanloigi, bir xillik, monatonlikdan bezorligi, ovoz tovlanishlariga o'chligi adabiyot darslarining uyushtirishda ham hisobga olinishi taqozo etiladi. Xuddi shu holat ifodali o'qishning mavqeini belgilaydi.

Adabiyot o'qituvchisi, birinchi navbatda, o'zi ifodali o'qiy oladigan bo'lishi kerak. Ifodali o'qish deyilganda tinish belgilari va mantiqiy urg'uni o'rini qo'llash emas, balki birinchi navbatda asar ruxini his etish, uning mazmunidan kelib chiqadigan ifodani topa bilish ko'zda tutilmog'i zarur. Boshqacha aytganda, ifodali o'qish-asar mazmunini o'quvchiga etkazish vositasi, muallif nazarda tutgan ta'sirni o'tkazish yo'lidir.

Ifodali o'qish o'rganilayotgan badiiy asarni emotsiyal idrok etishga xizmat qilgani uchun ham estetik tarbiyaning asosiy vositasidir. Ifodali o'qilgan asar u yoki

bu narsa haqida ma'lumot beribgina qolmaydi, balki o'quvchining tuyg'ulariga ta'sir qiladi. Badiiy matn ifodali o'qilganda o'quvchi muallif holatini tuyadi, his qiladi. Bu hol adabiy ta'lim oldidagi vazifalarning bajarilayotganligidan dalolatdir. Chunki, A.Qahhor aytmoqchi: "Bilgan bilib qo'yaverishi mumkin, ammo his qilgan his qilib qo'yavermaydi". Ayni matndan ta'sirlangan o'quvchi undagi qay bir ezgu ma'naviy fazilatni o'ziga yuqtirib olgan bo'ladi.

Ifodali o'qish asar mazmunining emotsional tomoni chuqur va to'g'ri anglatadigan, shu yo'l bilan o'quvchiolarning estetik tarbiyasiga imkon yaratadigan vositadir. Ifodali o'qish faqat estetik tarbiya vositasigina bo'lib qolmay, bilim olish vositasi hamdir. Zamonaviy ruxshunoslik fanining ta'kidlashicha, joyiga qo'yib, ifodali o'qilgan matn o'quchilarga tezroq etib boradi va ularning xotirasidan mustahkamroq joy oladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining o'quvchilar tomonidan zamonaviy adabiyotga nisbatan qiyinroq o'zlashtirilishining sabablaridan biri shuki, o'qituvchilar orasida mumtoz asarlarni to'liq tushunib va joyiga qo'yib, o'qiydiganlari, «ya'ni ularni o'quvchilar shuuriga, qalbiga, tuyg'ulariga etkazib bera oladiganlari juda kam. Shu boisdan ham o'quvchilar klassik asarlarni his qilmaydilar, ijodkorning holatiga tushmaydilar, binabarin, ularni tushunmaydilar. Shu boisdan ham barcha sinflarda ifodali o'qish adabiyotni o'zlashtirishning asosi deb qaralmog'i kerak.

Ifodali o'qishda o'qituvchi shaxsi katta o'rinn tutadi. O'qituvchining o'zi biron bir kamchiliksiz ifodali o'qiy bilmas ekan, adabiyot darslaridan kuzatilgan maqsad ro'yobga chiqmaydi. O'tmishda eski maktablarda ifodali o'qishga katta ahamiyat berilardi. Bunday o'nlab asarlar oldin muktab madrasalarda adabiyot o'qitishning vazifasi, asosan, aruz vaznidan asarlarni ifodali o'qib, ularga filologik sharhlar berishdan iborat edi.

ADABIYOTLAR:

1. Dolimov S., Ubaydullaev X., Axmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi, -T.: "O'qituvchi", 1967, 87-bet.
2. Fayzullina S.X. Ifodali o'qish estetik tarbiya vositasi. g'T.: "O'qituvchi", 1968.

3. Kattabekov A.T. Adabiyot darslarida estetik tahlilni kuchaytirishda badiiy asar tekstidan foydalanish. -T.: RTM. 1987. 23-27-betlar.
4. Yuldashev K., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: "Universitet". 1994.
5. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - T.: "O'qituvchi", 1996.

BADIY ASARNING O'QUV TAHLILI..

Reja:

- 1.Badiiy tahlilning pedagogik asoslari.
- 2.Badiiy tahlil turlari.
- 3.Asar tahlilining tamoyillari.
- 4.Badiiy asar tahlili bosqichlari.
- 5.Badiiy tahlilda bola yoshini hisobga olish.
- 6.Badiiy asarlarni o'rganish yo'llari.

Tayanch tushunchalar:

“Badiiy tahlil”, “Badiiy tahlil zaruriyat” “Badiiy tahlilning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi o’rni”, “Tahlil bosqichlari”, “ Tahlil turlari”, “ Tahlildagi bola yoshini hisobga olish ”, “ Tahlil tamoyillari”.

Maktab adabiyotini o'qitishdagi eng asosiy pedagogik tadbir badiiy asar tahlilidir. Badiiy asarni qabul qiladigan, undan ta'sirlanadigan, tahlillay oladigan o'quvchini tarbiyalagan muallimgina bosh pedagogik maqsadiga erishgan

hisoblanadi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot o'qitish yuzaga kelmaydi. Chunki hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o'quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushinishlari mumkin. Shu bois asar tahliliga katta e'tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar turg'un qaror topmaydi. Badiiy tahlil badiiy asardagi tuyg'u, hissiyot va fikrni o'quvchi sezishlari va ongiga ko'chirish demakdir.

Badiiy tahlil: a) ilmiy-filologik; b) o'quv-didaktik singari ikki katta turga bo'linadi. Shuningdek, o'quvchilir va o'qituvchilar hamkorligida amalgam oshiriladigan didaktik – o'quv tahlilning o'zi tahlilchilar miqdoriga ko'ra; a) idevidual – yolg'iz; b0 guruxiy; v) ommaviy kabi 3 turga bo'linadi.

O'quv tahlilida amal qilinishi shart bo'lgan bir qator tamoyillar borki, ularga rioya etilmay turib, tahlilda kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Bu tamoyillarning asosiyлари quyidagilar:

har bir tahlilning asosiy mulohaza ekanligi;

to'liq tahlilning bo'lishi mumkin emasligi;

biror asar bo'yicha butun sibf yoki o'quvchilar guruhining bir xil fikrga kelishi shart emasligi;

badiiy asarga yaxlit xodisa sifatida yondashish zarurligi;

tahlilda asarning til xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi;

asar bo'yicha bildirilgan har qanday fikr faqat asar matnidan keltirib chiqarilishi lozimligi.

O'qituvchi epik turdag'i asarlar o'rganilayotganda, tekstni tahlillash uchun savollar tuzib olishi shart. Ko'pincha adabiyot o'qituvchilar avvaldan savol tuzib olishmaydi. O'quvchilarga beriladigan savollarni tayyorlab olishga jiddiy ahamiyat qilishmaydi. Oqibatda, o'quvchilar oldiga umumiy, tahminiy savollar qo'yiladi. Bu holda o'quvini ham o'rganib o'rganib qolishadi. Savollarning aniq va matn ichida taftish qilisgda yo'naltirilmaganligi bolalarni badiiy asarni o'zi o'qimay turib, u haqda fikr aytishga odatlantiradi. Chunki savol aniq berilmagach, javob ham shunga

yarasha bo'ladi. O'qituvchi savol tuzishga qanchalik jiddiy yondashsa, bolalarning asarni o'rganishi ham shunchalik muofaqiyatli bo'ladi. Har bir savol asarning qaysi jihatni o'rganilishini hisobga olishi, o'quvchi beradigan javobni ham ko'zda tutishi kerak. Bolaning javobini keyingi savolni keltirib chiqarsa, juda yaxshi bo'ladi. Savollar asarni o'rganishdagi eng muhim jihatini o'z ichiga olishi zarur.

Badiiy tahlilda, albatta, 3 bosqich bo'lishi zarur: 1) Asar bilan tanishish; 2) Asarni tahlil qilish; 3) Tahlilni umumlashtirish. Shu bosqichlarga muofiq tarzda amaldagi metodika badiiy asarni tahlil qilishning quyidagi yo'llarini tavsiya etadi: 1) Muallifga ergashib yoki yaxlit o'rganish. 2) Obrazlar bo'yicha o'rganish. 3) Muammoli o'rganish. Badiiy asarni yaxlit yoki muallifga ergashib tahlillash syujetiga katta e'tibor berishni ko'zda tutadi va 5-6-sinflarda ko'proq ishlatiladi. Asarni tahlil etishning maskur usuliga ko'ra, badiiy asar o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarining xarakter xususiyatlari, psixologik taraqqiyot darajalari, pedagogic tayyorgarligini hisobga olgan holda ishlatib, matndagi voqealarga katta e'tibor beriladi. Bu yoshdagi bolalarga voqeа muhimroq. Demak, o'qituvchi voqeа, syujet orqali o'quvchilarining tuyg'ulariga ta'sir etishi zarur.

Badiiy asarni o'rganishning ikkinchi bir yo'li muammoli tahlildir. Bu metod ko'pincha yuqori sinflarda qo'llaniladi. Bu metoddagi asosiy narsa badiiy asar tahlilida o'quvchilar oldida muammo qo'yilishidir. O'quvchilar o'sha muammoni yechish jarayonida asar matniga tayanadi, unga estetik baho beradi. Adabiy asarni muammoli o'rganishda o'quvchilar oldiga hayotiy va estetik masala qo'yiladi va unga har bir o'qituvchi o'zicha javob beradi. Unda javoblar qancha xilma-xil bo'lsa, o'shancha quvonmoq kerak. Chunki qolipli fikrlash, bir xulosaga kelish fiksizlikdir.

6-sinfda "Zarbulmasal" asari o'rganiladi. Bu asar haqida muayyan tushuncha berilib, o'quvchilar asar matnini o'zlashtirishgach, ularning oldiga: "Gulhaniy asarida nima sababdan qushlar tasviridan foydalanadi?" – degan savol qo'yish lozim. Yoki 8-sinfda X.Sultonov qalamiga mansub "Saodat sohili" qissasi o'rganiladi. Bolalar asar bilan tanishganidan keyin ular oldiga: "Asarda tasvirlangan shoh Boburning shoир Bobur, xijronzoda Boburdan farqli jihatlari aks etgan o'rinalarini topib va sabablarini tushuntiring?" tarzida muammo qo'yish mumkin. O'smirlar qiziquivchan o'z fikrlarini

bildirishni xush ko'radigan, bu fikrlar bilan boshqalarning ham xisoblashishlarini istaydigan bo'ladi. Ular psixologiyasidagi ayni shu holat adabiy asarni muammoli o'rganishga qo'l keladi.

Badiiy asarni o'rganishning eng keng tarqalgan usuli uni timsol (obraz)lar bo'yicha o'rganishdir. Badiiy adabiyotdagi asosiy unsur obraz ekani bejiz emas. Adabiy asarni o'rganishning bu metodi turli sinf o'quvchilariga tatbiqan mos kelaverishi bilan xarakterlanadi. Ammo asarlarni qahramonlar bo'yicha o'rganish 6-sinfdan boshlab yaxshi samara beradi. Negaki, bu davrda o'smirlarda ma'naviyat masalalariga qiziqish keskin ortadi. Har bir bolada o'ziga xos axloqiy mezon shakllanadi. Ular har bir obrazning u yoki bu xarakteridagi ijtimoiy-axloqiy asosni bilishga intiladilar. Shu boisdan ham badiiy asarni obrazlar bo'yicha o'rganish 8-9-sinflarda katta salmoq kasb etadi.

Adabiyotlar:

1.Dolimov S.,

Ubaydullayev X., Ahmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "O'qituvchi"1967. 211-bet.

2.Rez Z.Ya. Metodika prepodavaniya literaturu.- M.: "Prosvexeniye", 1977.

3.Yo'ldoshev Q, Madayev A, Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "Universitet", 1994.

4.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: "O'qituvchi"1996

5.Yo'ldoshev K. O'qituvchi kitobi.-T.: "O'qituvchi."1997.

6. Zunnunov A., Xotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 1992

ADABIYOT O'QITISHDA KO'RSATMALI QUROLLARDAN

FOYDALANISH.

REJA:

- 1.Ko'rsatmalik-ta'limning asosiy tamoyillaridan biri.
- 2.Ko'rsatmali qurol adabiy materialni o'zlashtirishni yaxshilash vositasi sifatida.
- 3.Ko'rsatmali qurol turlari.
- 4.Adabiyot darslarida tehnik vositalardan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari.

Tayanch tushunchalar: Bilishning turlari, xissiy bilish va ta'limda ko'rsatmalilik, ko'rsatmali qurol va adabiy ta'lim, ko'rsatmali qurolning turlari, tabiiy ko'rsatmalilik, tasviriy ko'rsatmalilik, grafik ko'rsatmalilik, so'z ko'rsatmaliligi, texnik vositalar va adabiy ta'lim.

Didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri uning ko'rsatmaliligidir. Bu tamoyil qaysidir pedagoglar xoxishi yoki metodist olimning istagi natijasi bo'lmay, didaktikaning metodologok asosi bo'lmish bilish nazariyasining qonuniyatidan kelib chiqadi. O'quvchi, ayniqsa, quyiroq sinflarda bilishning xissiy bosqichini boshdan kechirayotgan boladi, yani sezgi organalriga bevosita ta'sir etgan narsa-hodisalarni yaxshiroq idrok etadi. Shu boisdan ham adabiyot darslarida o'rni bilan ko'rsatmali quroldan foydalanish joiz. Ammo adabiyot so'z sanati ekanini va uning butun qudrati so'zda ekani, butun mohiyati, jozibasi so'z orqali yuzaga chiqishini uqtirmaslik kerak. Darslarni kerak-nokerak sxemalar, chizma va rasmlar bilan to'ldirib tashlaash kerak emas.

Ta’limda ko’rsatmalilik masalasi buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika”, “Rasmlarda sevimli narsalar olami” kabi kitoblarida ilk bor ilmiy asoslab berilgan. I.Pestalotsi asarlarida bu ta’limot yanada rivojlantirildi va boyitib borildi. Ta’limda ko’rsatmalilik masalasida rus pedagogi Q.Ushinskiy qo’shgan xissasining ulkanligini ta’kidlash kerak.

Mumtoz pedagog-olimlarning yuqorida aytilgan fikrlari zamonaviy tarbiyashunoslarning tadqiqotlari bilan yanada mustahkamroq tasdiqlanadi. Chunki bilish jarayonning bosqichlari o’z-o’zidan ko’rsatmalilikning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Ko’rsatmali turlarini zamonaviy pedagogika quyidagicha tasnif etadi:

- 1.Tabiyy ko’rsatmalilik.
- 2.Tasviriy ko’rsatmalilik.
- 3.Grafik ko’rsatmalilik.
- 4.Badiiy so’z ko’rsatmalilik.

Tabiyy ko’rsatmalilik bizni o’rab turgan atrof-muhitda keng yoyilgan narsa va hodisalardan dars jarayonida foydalanish bo’lib, daryo, so’qmoq, gul, qir, adir, lola kabi tabiat unsurlaridan adabiyot bo'yicha biror mavzuni o’rganishda foydalanish mumkinligini anglatadi.

Tasviriy ko’rsatmalilik pedagogic amaliyotda kengroq qo’llaniladigan turlardan bo’lib, adiblarning portretlari, asardagi biror lavha tasviri kabilarni o’z ichiga oladi.

Grafik ko’rsatmalilik chizmalar, jadvallarni qamrab oladi. Adabiyot mashg’ulotlarida adabiy jarayon, adiblarning hayot yo’li, ijod bosqichlari

xususidagi ma'lumotlar, odatda, grafik yo'sunda aks ettirilsa, tushuntirish osonlashadi.

Adabiyot o'qitishda ko'rsatmali ta'limning eng ko'p qo'llanadigan turi badiiy so'z ko'rsatmaliligidir. Bu ko'rsatmali qurol har bir adabiyot muallimiga tabiat tomonidan berilgan, ta'lim yo'li bilan takomillashtirilgan bo'ladi. Adabiyot darslarida so'zdan ta'sirliroq qurol bo'lishi mukin emas. Ammo so'zning qudratidan o'quvchi omilkorlik bilan foydalana olishi, o'quvchilarning tuyg'ularini jumdashga keltiradigan vaziyatlar yarata bilishi kerak.

Adabiyot darslarida texnik vositalardan foydalana olish ham muayyan ahamiyatga ega. Texnikaning imkoniyatlari ortib borgani sari u o'quv jarayoniga chuqurroq kirib bormoqda. Video vositalari, televizor magnitafon, radio kabi ashyolar, bevosita adabiyotga doir ko'rsatmalikni ta'minlaydigan diafilm xam o'ziga yarasha ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

- 1.Dolimov S., Ubaydullayev X., Ahmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "O'qituvchi"1967. 211-bet.
- 2.Rez Z.Ya. Metodika prepodavaniya literaturu.- M.: "Prosvexeniye", 1977.
3. Zunnunov A., Xotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "O'qituvchi", 1992
4. Yo'ldoshev Q, Madayev A, Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "Universitet", 1994.
- 5.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-T.: "O'qituvchi"1996
- 6.Russkiy yazik literatura v uzbekskoy shkole.(jurnal). 1985.

7.Ernazarov X. Adabiyot darslarida diafilm,-T.: “O’qituvchi”, 1987.

ADABIYOTDAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR.

REJA:

- 1.Sinfdan tashqari ishlarning pedagogic asoslari.
- 2.Sinfdan tashqari ishlarning turlari.
- 3.Sinfdan tashqari o’qitishni uyushtirish.
- 4.Kitobxonlar konfrensiyasini o’tkazish.
- 5.Adabiy uchrashuvlar o’tkazish.
- 6.Adabiy baxslar o’tkazish.
- 7.adabiy kurok (montaj) tayyorlash.
- 8.Adabiy ko’tgazmalar tashkil etish.
- 9.Adabiy kechalar o’tkazish.

Tayanch tushunchalar: Adabiyot darslari va sinfdan tashqari ishlar.

Ma’naviyati boy va go’zal axloqli shaxsni tarbiyalash uchun adabiyot darslaridagina olib boriladigan ishlar yetarli emas. Adabiyot o’qituvchisi badiiy asarni o’qishni o’z talabalarining tabiiy ehtiyojiga aylantiro olgan taqdirdagina bosh maqsadiga erishish yo’liga tushgan hisoblanadi. YOshlardagi estetik taraqqiyotni tezlatish badiiy didni o’stirish, ulardagi ijodkorlikni rivojlantirish vash u yo’l bilan yuksak ma’naviyatli kishilar sifatida tarbiyalash borasidagi adabiyotdan sinfdan tashqari ishlar katta o’rin tutadi.

Sinfdan tashqari ishlarning o’ziga shundaki, ular tarbiyalanuvchida ijodkorlik mayllarini uyh’otadi, o’zining nimalarga qodir ekanini ko’rish, boshqalardan farqli jih’atlarini namoyish etish, yaratish ishtiyoqini tug’diradi. Sinfdan tashqari ishlar

bolada g`alaba lazzatini, ijodning yashirin azoblarini totishga o`rgatadi. O`zining shaxs ekanini to`liqroq h`is etishga odatlantiradi. O`quvchini ruh`lantiradi. Erk tuyg`usi yaratish h`issini uyg`otadi. Shu ikki sezish omuxta bo`lsagina to`laqonli shaxs shakllanish to`g`ri yo`lga qo`yilgan bo`ladi. Sinfdan tashqari ishlar natijasida tarbiyalanuvchida badiiy did shakllanishi tezlashadi, kitobga, o`qishga, izlanishga meh`r uyg`onadiki, pedagogik maqsad shu tarzda amalga oshadi.

Adabiyot darslari va u bo`yicha sinfdan tashqari ishlar o`zaro uzviy aloqada. Sinfdan tashqari ishlar adabiyot darslaridan kelib chiqadi, ularning davomi h`isoblanadi. Ayni vaqtida, darslarni yangi mazmun, yangi material bilan boyitadi, tarbiyalanuvchilarda yangi axloqiy sifatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Darslar hamisha o`quvchining sinfdan tashqari bilimlar zahirasiga, shakllantirgan insoniy fazilatlar ja`miga tayangan holda olib boriladi. Shuningdek, darsda berilgan bilimlar, aytilgan ma`lumotlar o`quvchini ko`proq mustaqil o`qishga odatlantirishi kerak.

Adabiyot dasturlari va darsliklarida sinfdan tashqari o`qiladigan adabiyotlar ko`rsatiladi, shulardan afrimlari majmualardan joy oladi. Metodik qo`llanmalar esa bu boradagi tajribalarni umumlashtirib, har bir o`qituvchining o`ziga mos metodikasini ishlab chiqarishga urinadi.

Adabiyot bo`yicha sinfdan tashqari ishlarning a) adabiy konferentsiya; b) adabiy uchrashuv; v) adabiy ahslar; g) adabiy montaj (kurok); d) adabiy ko`rgazmalar; e) adabiy kechalar singari turlari mavjud.

Adabiy konferentsiya bir yozuvchining yoxud bir turkumi asarlari bo`yicha alohida tayyorgarlik bilan o`tkaziladigan ish turi hisoblanadi. Ungda o`qituvchi va bir necha o`quvchilar ma`ruza qilishlari lozim.

Adabiy uchrashuvda asosiy og`irlik o`qituvchilar zimmasiga tushadi. Chunki ijodiy mahsuloti bilan ayni yoshdagи o`quvchilarga bir qadar daxldor bo`lgan ijodkorlar bilan uchrashuvni o`qituvchigina tashkil etishi mumkin. Bunga ham maxsus hozirlik ko`rilishi zarur.

Adabiy bahslar bir asar yuzasidan o`tkaziladigan ish turi. Unda o`quvchilar Ayni asarni o`qishadi va har biri shu asar bo`yicha o`z qarashlari bilan o`rtoqlashadi, shu yo`l bilan o`quvchilarda bahs madaniyati shakllanadi.

Adabiy kuroklar bayramlar munosabati Bilan o`tkaziladigan tadbir bo`lib, biror mavzuga bag`ishlangan asarlarning tegishli o`rinlarini yoddan keltirish yo`li Bilan amalga oshiriladi. Til, navro`z, mustaqillik, ayollar kuni singari bayramlarga bag`ishlangan adabiy kompozitsiyalar shular jumlasidan.

Adabiy kechalar biror adibning tavalludi yoxud tanlangan mavzu bo`yicha uyushtiriladigan tadbir bo`lib, maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Unda tashkiliy qo`mita ish ko`radi. Maxsus ma`ruzachilar tayin etiladi. Reja tuziladi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Dolimov S., Ubaydullaev X., Ahmedov K., Adabiyot o`qitish metodikasi. –T.: “O`qituvchi”, 1967. 412g’417 betlar.
2. Rez Z.Ya. i dr. Metodika prepodavaniya literaturu, -M.: Prosveshenie, 1977. str. 366.
3. Zunnunov A., Xotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o`qitish metodikasi. –T.: “O`qituvchi”, 1992.
4. Zunnunov A., Xotamov N. Adabiyot nazariysi. –T.: “O`qituvchi”, 1978.
5. Zunnunov A. 5-10 sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o`rganish. T.: 1967.
6. Yo`ldoshev K., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi. T.: «Universitet», 1994.
7. Yo`ldoshev K. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “O`qituvchi”, 1996.
8. Badriev F. Yuqori sinflarda adabiyotdan sinfdan tashqari ishlari. –T.: “O`qituvchi”, 1969.
9. Musurmonova O. Adabiyot va axloqiy tarbiya. T.: “O`qituvchi”, 1988.

ADABIYOTDAN FAKULTATIV MASHG'ULOTLAR

REJA:

1. Fakultativ mashg'ulotlarning o'ziga xosligi.
2. Fakultativ mashg'ulotlar tarkibi va mazmuni.
3. Fakultativ mashg'ulotlar tizimi.
4. Fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilar faoliyatini asosiy turlari.
5. Fakultativ kursni rejalashtirish yo'llari.

Fakultativ mashg'ulotlarning asosiy o'ziga xosligi ularning ixtiyoriyligidir. O'quvchilar darsga kelganlariday fakultativlarga qatnashishlari majburiy emas. Bola fakultativni tanlash huquqiga ega. Tanlab yozildimi endi ishtiroki majburiy. Adabiyt darslarida o'qituvchining asosiy e'tibori o'quvchilarda qiziqish uyg'otish bo'lsa, fakultativ mashg'ulotlarda mavjud qiziqishni chuqurlashtirishga qaratilishi kerak.

Fakultativ mashg'ulotlar o'quvchilarga Yana bir jihtai bilan qiziqarli, unda bolalarga odatdag'i yo'sinda baho qo'yilmaydi. Ma'qullash, qoyil qolish, shaxsning bolaning ichki imkoniyatlarini ochib yuboradi. O'quvchining o'zi qiziqib yozilgan soha bo'yicha yomon baho qo'yish mantiqsizlidir. Bola qiziqqan sohada boshqalar echaolmagan muamoni hal etishi, ko'ngliga yoqqan ish bilan shug'ullanishi uning taraqqiyotiga ham ijodiy ta'sir qiladi.

Adabiyot darslarida adabiyotga qiziqishi turlicha bo'lgan 40 tagacha o'quvchi qatnashsa va o'qituvchi o'z ishini ularning o'rtacha darajasiga moslashga majbur bo'lsa, fakultativ qatnashuvchilari miqdori 10-15 atrofida bo'ladi. Bu hol, ya'ni qiziqish doiralari bir, maslaklari yaqin kishilar uyushmasi boladagi ijodiy imkoniyatlarni uyg'otadi. Fakultativ ishtirokchilari sinfdagina qaraganda, intellektual jihatdan ham o'zaro tengroq bo'ladi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Rez Z.Ya. i dr., metodika prepodavaniya literaturu. -M.: "Prosveshenie", 1977, str. 396.
2. Zunnunov A., Xotamov N., Ibroximov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: «O'qituvchi», 2992.
3. Yo'ldoshev K., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: «Universitet», 1994.
4. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1996.
5. Kovalev L.E. Fakultativnoe zanyatiya po literature v shkole. -M.: 1974.
6. Volovnikova G.M. Sovremennie zadachi razvitiya fakultativnix zanyatiy po literature. "Literatura v shkole" (jurnal). 1976. № 3-5.

ADABIYOT TO`GARAGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

1. Adabiyot to`garagining o`ziga xosligi.
2. Adabiy-ijodiy to`garak.
3. Drama to`garagi.
4. Ifodali o`qish va badiiy hikoya qilish to`garagi.
5. To`garaklar ishini rejalashtirish.

Adabiyotni o`rganish bir umr davom etadigan va asosan, maxsus ajratilgan dars soatlaridan tashqari kechadigan uzlusiz jarayondir. Adabiy asarlarning jud katta qismi sinfdan tashqarida, o`quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o`zlashtiriladi. Shuningdek, badiiy asarlarni o`qish ayrim o`quvchilarda ijodga intilish, yaratuvchilik, bezovtalik kayfiyatini vujudga keltiradi. Adabiyot o'qituvchisi shu xildagi kayfiya qaysi o`quvchilarda paydo bo`lagini bexato payqay olishi kerak. Ayni vaqtida badiiy sezgi muhabbat mayliga ega yoshlardagi

intilishni rag'batlantirish va o'stirish darkor. Manna shu maqsadlarga xizmat qiladigan eng yaxshi vosita adabiyot to'garaklaridir.

Adabiyot to'garagida ko'pi bilan 15-20 odam ishtirok etadi. Qatnashchilar umumiyligida qiziqish atrofiga birlashgan bo'linadi. To'garakka imkon boricha, adabiyotga, ijodga qarashlari umumiyligida, yosh xususiyatlari yoki rivojlanish darajalari yaqin bo'lган o'quvchilar to'planishiga erishmoq kerak. Maktabda bir necha adabiyot to'garagi bo'lishi mumkin va ularga turli maneraga ega o'quvchilar rahbarlik qilganlari ma'qul. To'garaklarda qiziqishlari bir xil bo'lган oz sonli bolalar o'zaro tortinmay, qo'liga qolishdan cho'chimay ijod haqida adabiyot haqida, sahna to'g'risida fikrlaydilar. To'garakka rahbarlik qilgan o'qituvchi o'zini tengdoshlari yoki hamkasblari orasida yurganday tutishi zarur. Negaki, notenglik tuyg'usi tortinishni yuzaga keltiradi, kimtingan kishining ijodiy imkoniyatlari esa to'la ro'yobga chiqmaydi. Hozirda maktablarimida adabiyot to'garaklari uch ko'rinishga ega:

1. Adabiy-ijodiy to'garak.
2. Drama to'garagi.
3. Ifodali o'qish to'garak.

Adabiyot to'garaklarining bu ko'rinishlari o'zaro farqlansalar ham maqsadlari umumiyligida o'quvchilarda badiiy so'zga ehtirom tuyg'usi, so'z sehridan ogoh bo'lishga intilish hissi hamda badiiy ijoddan bahramandlik holatini hosil qilishdir. Shu boisdan adabiyot to'garaklarining hamma turlari ham qaysidir bir jihatlari bilan umumiyligida nuqtada kesishadilar.

To'garaklarga, odatda turli sinflarning o'quvchilari yozilishadi va o'zaro yaqindan bo'lмаган о'quvchilarni umumiyligida qiziqish birlashtiradi. Adabiyotga qiziqqan bolaning shu uch to'garakdan qaysi biriga yozilishning qiziqish, o'quvchi haqida muayyag tasavvur uyg'otadi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Dolimov S., Ubaydullaev X., Axmedov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1967, 421-427 betlar.
2. Rez Z.Ya. i dr. Metodika prepodavaniya literaturu, -M.: 1977, str. 374.
3. Musurmonova O. Adabiyot va axloqiy tarbiya. –T.: 1988, 78 bet.
4. Zunnunov A., Xotamov N., Ibroximov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1992.
5. Yo'ldoshev K., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “Universitet”, 1994.
6. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “O'qituvchi”, 1996.

ADABIYOT DARSALARINI TAHLILLASH

R E J A:

1. Darsni kuzatsh va tahlillash pedagogik asoslari.
2. Dars tahliliga qo'yiladigan pedagogik atalablar.
3. Darsni kuzatish va tahlillashning tarkibiy qismlari.
4. Dars tahlili turlari.
5. Darsni tahlillash shakllari. Dars tahlilini qayod etish yo'llari.

Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida darsni kuzatish va tahlillash alohida o'rin tutadi. O'zgalarning darslarini kuzatishni, ularning yutuq va kamchiliklarini topishni bilmaydigan o'qituvchining mahorati haqida gapirish ham ortiqcha. Chunki o'qituvchi o'zining qanday bilim va tajribaga egaligini faqat hamkasbi darslarini tahlillash yo'li Bilan aniqlay oladi.

Darsni kuzatish va tahlillash, ayniqsa yosh va bo'lajak o'qituvchilar hayotida alohida o'rinni tutadi. Yosh o'qituvchi yoki talaba tajribali pedagoglar yoxud tengdoshlari o'tgan darslarni kuzatishi, ularning yutuq va kamchiliklarnini ko'rishni o'rganmay turib, o'zlaricha hech qanday pedagogik malakaga erisha olmaydilar.

Adabiyot o'qituvchilari ham yosh avlod ruhiyatida eng ezgu axloqiy fazilatlarini barpo etishga intilar ekan dars tahlilini o'rganishlari g'oyat zarurdir. Adabiyot o'qituvchisi qay o'rinda yutuqqa erishgan va qay vaziyatda kamchilikka yo'l qo'yganini ya'ni o'ziga o'zi beradigan bahoni ham faqat qiyoslash yo'li bilan amalga oshiradi. Xullas, darsni kuzatishni, uni taxlillashni bilmay turib, pedagogika Fani taraqqiyoti haqida ham ilg'or pedagogik tajriba orttirish haqida ham orzu qilish mumkin emas.

Darsni kuzatsh va tahlillash oldiga muayyan pedagogik alablaladiki, bu talablarga rioya etmay turib, darsni takomillashtirish, uning ta'limiy-tarbiyaviy, rivojlantirish maqsadalriga erishish mumkin emas.

Dars tahlilining a) ilmiy; b) metodik; v) didaktiv; g) umumpedagogik singari turlari mavjud. Dars tahlilining bu turlari tahlil jarayonida ko'proq qaysi jihatga e'tibor qaratilishiga ko'ra farqlanadi.

YILLIK MAVZULI REJA TUZISH

Biz yuqoridaq mavzularda adabiyot ta'limdan sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni ko'rib o'tdik va shu bilan birga pedagogik jarayonning **m u n d a r i j a s i n i** ham izohlab o'tdik. Endi unga **t a y y o r l a n i s h** masalasini ko'raylik.

Pedagogik jarayonga tayyorlanish mashg'ulotni to'g'ri rejlashtirishni talab qiladi. Buning uchun vaqtini, o'quvchilarning yos xususiyatlarini; tayyorgarligini hisobga olish lozim va ularga asoslanib, butun dastur materiallarini taqsimlash kerak.

Ikkinci tomondan, pedagogik jarayonni tashkil qilish uchun reja bajarila oladigan qilib, ya'ni real ravishda tuzilishi lozim. Buning uchun moddiy bazaga suyanish lozim, ya'ni o'quvchilar maxsus jihozlangan bino hamda darsliklar, o'quv qo'lanamalari va axborot texnologiyalari bilan ta'minlangan bo'lishlari kerak.

Boshqacha qilib aytganda, sinfdagi adabiy ta'limni va sinfdan tashqari mashg`ulotlarni amalga oshirmoq uchun rejalashtirish va jihozlash muhim rol o`ynaydi.

Adabiyotdan mashg`ulot rejasi to`rt asosiy shaklga egadir: 1) yillik mavzuli reja; 2) chorak bo`yicha reja; 3)mavzuli reja; 4)bir soatlik darsning reja- ko`chirmasi.

O`quv yili boshlanmasdan oldin yillik mavzuli reja tuziladi. Butun bir yillik ishni to`g`ri rejalashtirish va uni to`g`ri tashkil qilish uchun nimalarga e'tibor qilish lozim?

- 1) To`rt chorak bo`yicha adabiy materialni to`g`ri taqsimlash.
- 2) Shu adabiy materiallarga doir bo`lgan asosiy adabiy-nazariy masalalarini taqsimlash.
- 3) Muayyan bir asarni o`rganishga bog`lab nutq o`stirish turlari. Har qaysi chorak bo`yicha sind va uy insholarining soni.
- 4) Choraklar bo`yicha sinfdan tashqari qilinadigan ishlar mazmuni.
- 5) O`qituvchining ilmiy-uslubiy va jamoat ishlari. Bunda har bir chorak bo`yicha va yil oxirida takrorlashga sarf bo`ladigan vaqtini ham hisobga olish kerak.

Yillik rejaga asoslanib yarim yillik yoki chorak rejasi tuziladi. 5-9 sinflar uchun chorak rejasi, 10-11-sinflar uchun yarim yillik reja tuzish maqbuldir.

Chorak rejada qilinadigan ishlarning mazmuni aniq, hamma tafsilotlari bilan ko`rsatiladi. Unda yozma ishlarning mavzusi, uni o`tkazish va tahlil qilish uchun ajratilgan soatlar; adabiyot nazariyasidan beriladigan bilim va uni tizimlashtirish, o`quvchilarining ma`ruzalari uchun ajratilgan muddatlar; sinfdan tashqari ishlarning mazmuni: ekskursiya, muzey va teatrلarga borish, to`garakda ko`riladigan ishlar mazmuni to`liq ko`rsatiladi. Choraklik rejada o`qituvchining qanday ilmiy-uslubiy va jamoat ishi olib borayotganini ham ko`rsatib o`tiladi.

Yirik asar yoki yozuvchining ijodini o`rganish oldidan mavzuli reja tuziladi. Mavzuli reja materiallari har bir dars bo`yicha taqsimlanadi. Unda ish usullari, ko`rgazmali qurollar, axborot texnologiyalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar (sahifalari bilan) aniq ko`rsatiladi. Mavzuli reja asosida kundalik dars reja ko`chirmasi tuziladi.

Dars reja ko'chirmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: a) uy vazifasini so'rash, b) Yangi materialni bayon qilish, v) bilimni mustahkamlash, g) uygaga vazifa topshirish.

A D A B I Y O T L A R

- 1.DolimovS.,UbaydullaevH., Axmtдов Q. Adabiyot o'qitish mtto'dikasi.T.:”O'qituvchi” 1967.
2. Yo'ldoshev Q., va boshqalar.Adabiyot o'qitish mtto'likasi.T.:”Universitet” 1997.
3. Zunnunov A., Xotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1992.
- 4.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “O'qituvchi”, 1996.
- 5.To'xliev B.Adabiyot o'qitish meto'dikfsi. T.: “Yangi avlod”,2006.

BIR SOATLIK DARSNING REJA-KO'CHIRMASINI TUZISH.

REJA:

1. «2004-2009 yillarda maktab milliy ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» ning maqsadi.

2. Global ta'lim mazmuni va uni ta'lim mazmuniga tadbiq etish printsiplari.

3. Bir soatlik dars rejasi namunasi.

«2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» ning maqsadi ta'lim muassasalari moddiy-texnika zahirasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish bilan birga, ta'lim mazmunini yangilash va takomillashtirishga qaratilgandir.

Hozirgi kunda yangi asr ta'limni globallashtirishni muhim vazifa qilib qo'ymoqda. Global ta'lim nimaga asoslanadi va uni ta'lim tizimiga qanday tadbiq

etish mumkin? Ta'limning bu usuli ta'limdagi eng global muammolarga javob izlaydi. Dastur quyidagi printsiplarga asoslanadi:

- o'quvchini yoshidan qat'iy nazar uni shaxs sifatida tan olish;
- berilayotgan bilimlarning qanchalik hayotga bog'liqligini o'quvchiga tushuntirish;
- ta'lim olish va berish jarayonining o'quvchi va o'qituvchi uchun maroqli, qiziqarli bo'lishini ta'minlash;
- bilim ko`nikma, odob-axloq shaxsiy nuqtai nazar me'yorlarini uyg'unlashgan holda o'rgatish;
- o'quvchi o'zining shaxs sifatida shakllanishiga, imkoniyatlari darajasini va kamchilik tomonlarini anglab etishga yordam berish;
- eng asosiysi taraqqiyot uchun savodxonlik zarur ekanligini anglashga o'rgatadi.

Bolaga o'qituvchi bir soatlik dars rejasini quyidagi bo'limlar asosida tuzadi.

- Fanning nomi: Adabiyot
- Sinf: 5-sinf
- Mavzu: Dasturda belgilangan mavzu yoziladi.
- Vaqt: 45 daqiqa
- Dars nomi: Mavzudan kelib chiqqan holda darsga qiziqarli nom beriladi.
- Maqsad: O'quvchilarda qanday munosabatlar shakllantiriladi.
 - a) ta'limiy
 - b) rivojlantiruvchi
 - v) tarbiyaviy.
- Resurslar: Dars qanday jihozlanadi.
- Dars jarayoni: 1-bosqich. Tashkiliy qism. 2-bosqich. Uy vazifasini so'rash va x.k.
- Izoh: qo'shimcha nimalardan foydalanish mumkinligi haqida izoh beriladi.
- Kengaytirish: O'quvchi uchun o'quv qo'llanmalaridan tashqari foydalaniqidigan manbalar ko'rsatiladi.

- Boshqa variantlar: Ta'lim berishning yana qanday usullaridan foydalanish mumkinligi ko`rsatiladi.

- Baholash: O`quvchilarning dars jarayonida olgan qaysi bilim, ko`nikma va malakalari baholanishi aniq ko`rsatiladi.

So`nggi yillarda YuNISEFning O`zbekistonidagi vakolatxonasi va xalq ta`limi vazirligi xamkorligi hamda tashabbusi bilan Respublikamiz ta`lim muassasalarida joriy etilayotgan Bolaga do`stona Munosabatdagi Maktab (BDMM) loyihasi o`quvchilar uchun ta`lim olish qulay hamda sifatli bo`lishiga, ulardagi hayotiy ko`nikmalarni shakllantirishga yo`nalitirilgan bo`lib, innovatsion texnologiyalar orqali davlat ta`lim standartlari talablarining to`liq bajarilishiga mo`ljallangandir. Loyihaning maqsadi bugungi kunda tez o`zgaruvchan, murakkab va o`zaro bir-biriga bog`liq dunyoda o`z o`rnini topa oladigan ya`ni aqliy hujum, jismoniy hamda ma`naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdir.

Binobarin, ayni paytda maktab ta`limining maqsadi o`quvchilarga DTS va o`quv dasturi talablarining darajasida chuqur bilim berish, ularni ma`naviyati yuksak shaxs qilib tarbiyalash ekan, har bir o`qituvchi o`quv fanining o`ziga xos xususiyatlarini nazarda tutgan holda, adabiyot darslarida zamonaviy ta`lim usullaridan o`rinli foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Dolimov S. va boshqalar. Adabiyot o`qitish metodikasi. T., O`qituvchi, 1967.
2. Yo`ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi. T., Universitet, 1994.
3. Usmonova K. Adabiyotdan zamonaviy dars turlari. Toshkent. 2007.
4. To`xliev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. T.: 2006.

YOZMA ISHLAR VA ULARNI O`TKAZISH

REJA:

1. Adabiyot bo`yicha yozma ishlarning pedagogik zaruriyati.

2. Yozma ish turlari va uni o'tkazish yo'llari.
3. Yozma ish mavzusini belgilash.
4. Inshoga reja tuzish yo'llari.

Shaxsining kamolotida uning nutqiy rivojlanganlik darajasi muhim ahmiyatga ega. Chunki nutq insondagi intellektual emotsional imkoniyatlani yuzaga chiqarish vositasidir. Adabiyot mashg'ulotlarida o'quvchilar nutqi ikki yo'l bilan o'stiriladi. 1. Og'zaki. 2. Yozma.

Yozma ishlar yoki ularga tayyorgarlik faqat sinfda bajariladigan tadbir bo'lmay, balki bu ishlarni uyga vazifa yoxud mustaqil ish sifatida ham berish mumkin.

Yozma nutq barkamolligi inson shaxsi takomilida alohida mavqega ega. Chunki yozma nutq aqliy faoliyatning murakkab shakli bo'lib, odam kamolotining yuksakligidan dalolatdir. Yozma nutq adabiy ta'limda, asosan, insho o'tkazish yo'li bilan rivojlantiriladi. Adabiyot o'qitishda inshoning ahamiyati beqiyos. O'quvchilarning bog'lanishli nutq malakalarini oshirishda eng muhim vosita ishodir. Shu sababli maktabda insho yozishga katta e'tibor beriladi.

Insho-arabcha yozish, belgilab qo'yish, ijod qilish ma'nolarini bildiradi. Insho-o'z fikr-mulohazalarini tilning grammatik qoidalari asosida mustaqil yozma bayon qilish usuli.

Olimlar inshoni quyidagicha tasnif qilishadi:

Pedagogik maqsadga ko'ra:

A) ta'limiy insho; b) nazorat insho.

2. Shakliga ko'ra:

a) og'zaki insho; b) yozma insho.

3. Mavzusiga ko'ra;

a) adabiy insho; b) erkin insho; v) adabiy-ijodiy insho

4. Janriga ko`ra:

- a) rivoya insho; b) tasviriy insho; v) muhokama insho; g) taqriz insho.

Inshoning muvaffaqiyatli to`laligicha unga yaxshi tayyorgarlik ko`rishga bog`liq. O`quvchi inshoda yoritmoqchi bo`lgan mavzuni atroflicha bilishi kerak. O`quvchi materiallarini saralab, yozma ifodalashni uddalay olishi zarur. Inshoni yaxshi yozish uchun o`quvchi unga doir atamalarni, nazariy tushunchalarni puxta o`zlashtirishi zarur. Mavzu, reja, tezis, dalil, xulosa, kirish, epigraf va boshqa tushunchalar anna shular sirasiga kiradi.

Mavzu umumlashma xarakterda, o`quvchi fikrini muayyan yo`nalishga qarata oladigan bo`lishi kerak.

Reja-o`quvchining mavzu yuzasidan bilganlarini chegaralash, muayyan tartibga solish, tizim holiga keltirish, obrazlar haqida, asar uslubi haqida xulosa chiqarish vositasi hamdir. Insho yozishda rejaning soda yoki murakkabligini majburiy tarzda belgilamaslik zarur.

A D A B I Y O T L A R:

1. Dolimov S. Ta`limiy bayon va insho. T.: «O`qituvchi», 1968.
2. Zunnunov A., Turdiev B. Bayonlar to`plami.-T.: «O`qituvchi», 1974, 5-12-betlar.
3. Dolimov S. Va boshqalar. Adabiyot o`qitish metodikasi. –T.: «O`qituvchi», 1967. 215-bet.
4. Rez Z.Ya. i dr. Metodika prepodavaniya literaturu. –M.: “Prosveo`eniya”, 1977. str. 391.
5. Zunnunov A., Xotamov N., Ibroximov A., Esonov J. Adabiyot o`qitish metodikasi. –T.: «O`qituvchi», 1992.
6. Yo`ldoshev K., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o`qitish metodikasi. –T.: “Universitet”, 1994.

7. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: «O'qituvchi», 1996.

YOZMA ISHLARNI TEKSHIRISH VA BAHOLASH

REJA:

1. Yozma ishlarni tekshirish metodikasi.
2. O'quvchilarning yozma ishlarida ko'p uchraydigan (tipik) xatolar.
3. Yozma ishlarni baholash metodikasi.
4. Xatolarni aniqlash va belgilash yo'llari.

Inshoni tekshirish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanadi. Chunki yozma ishlar nisbatan katta hajmda va qisqa muddat ichida yozilganliklari hamda o'quvchilarning grammatika borasidagi bilimlari etarli bo'limgani uchun ko'pincha xatolar miqdori ortib ketadi.

Insho yozdirishdan maqsad o'quvchilarning yozuv savodxonligini oshirish, ularni har qanday murakkab fikr-mulohazalarini tushunarli va chiroqli tarzda ta'sirli qilib ifodalab berishga o'rnatishdir. Shu bosidan insho yozish tilning grammatik qoidalariiga uzviy bog'langan. Hozirga kelib o'quvchilar orasida savodxonlik darajasining keskin pasayib ketishiga asosiy sababalradan biri shuki, tilimizning imlo qoidalari, grammatik normalari hamisha ham chuqur ilmiy asoslarga tayanilgan holda ishlab chiqilmagan. Ko'pgina grammatik qoidalari bizning tilimiz xususiyatlarini aks ettirmaydi. Bular rus grammatikasidan ko'rg'ko'rona nusxa ko'chirish tufayli paydo bo'lган. Maktab grammatikasi xususida shuni aytish mumkinki, u ko'p jihatdan jonli so'zlashuv tilidan uzoqlashib ketgan. O'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalar berish o'rniga ilmiyday bo'lib ko'rindigan murakkab qoidalarni o'zlashtirish talab qilinib, o'quvchilar til o'rghanishdan bezdiriladi.

Shuningdek, ona tili ta'limi ham talab darajasida tashkil etilmagan.

Shuning uchun ham bugungi o'quvchilarimizning yozma savodxonligi past darajada ekan, o'qituvchilardan aybni soqit qilmagan holda o'zbek darsliklarining grammatikasining hozirgacha, qoniqarli ilmiy-metodik ahvolda emasligini ta'kidlash o'rini bo'ladi.

Adabiyot o'quvchisi biror mavzu yuzasidan insho yozdirar ekan, yozma ishning ona tilidan o'rganilgan biror grammatik qoidani mustahkamlashga qanchalik xizmat qilishni ham xisobga olishi zarur. Insho yordamida mustaxkamlangan grammatik qoida o'quvchi hotirasida chuqur iz qoldiradi, uning savodxonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'quvchilarning insholari ijodiy ish, shu sababli ularni tekshirishga ham turli tomonlardan, turlicha aspektlarda yondashish zarur.

A D A B I Y O T L A R:

1. Dolimov S. Ta'limiy bayon va insho. T.: «O'qituvchi», 1968
2. Dolimov S. Va boshqalar. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1967. 215-bet.
3. Zunnunov A., Xotamov N., Ibroximov A., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: «O'qituvchi», 1992.
4. Yo'ldoshev K., Madaev O., Abdurazzaqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: “Universitet”, 1994.
5. Yo'ldoshev K. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: «O'qituvchi», 1996.

«Adabiyot o'qitish metodikasi» fanidan nazorat savollari

Adabiy ta'limning maqsadi.

Kirish mashg'ulotlarini o'tkazish yo'llari.

Dars tahlili turlari.

Adabiyot o`qitish metodikasining perdmeli va vazifalari.

O`quvchilarning yozma ishlarida ko`p uchraydigan xatolar.

V-VI sinflarda adabiyot darslarini uyushtirishning o`ziga xos xususiyatlari.

Adabiy ta`lim va mafkura munosabati.

Ifodali o`qishning pedagogik-psixologik asoslari.

Adabiy-ijodiy to`garak.

Adabiyot o`qitishda tadqiqiy metoddan foydalanish.

Badiiy tahlilda bola yoshini hisobga olish.

Adabiy bahslar o`tkazish.

Istiqlol davrida adabiy ta`limga munosabat.

Kirish mashg`ulotlarining pedagogik zaruriyati.

Darsni kuzatish va tahlillashning tarkibiy qismlari.

Adabiyot metodikasi – inson ma`naviyatini shakllantirish vositasi.

Lirik asarlarni o`rganish vazifalari.

Nazariy tushunchalarini o`rganishning pedagogik asoslari.

Adabiyot o`qitishning vazifalari.

O`quvchilar ma`naviyatining shakllanishida sahna asarlarining tutgan o`rni.

Adabiyot nazariyasi va adabiyot tarixining aloqadorligi.

Adabiyot o`qitish metodlari.

Dramatik asarlar tahlilini amalga oshirish yo`llari.

Adabiy nazariy tushunchalarini o`rgatishda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Dastlabki adabiyot dasturlari.

Ifodali o`qish-estetik tarbiya vositasi.

Darslarni kuzatish va tahlillashni pedagogik asoslari.

Darslikka qo`yiladigan talablar.

Epik asarlarning ta`limda tutgan o`rni.

Ko`rsatmalilik-ta`limning asosiy tamoyillaridan biri.

Muammoli ta`lim metodi.

Har xil adabiy turdag`i asarlarni o`rgatishning o`ziga xosligi.

Adabiy kechalar o`tkazish.

Adabiyot o`qitish metodikasi tarixida jadidchilik davri.

1930-1990 yillarda adabiyot o`qitish metodikasi fanining o`ziga xos xususiyatlari.

Adabiyot darslarida texnik vositalardan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari.

Adabiy ta`lim va mafkura munosabati.

Ifodali o`qishning pedagogik-psixologik asoslari.

Lirik asarlarni o`rganish yo`llari.

Dramatik asarlarga xos xususiyatlar.

Badiiy matnni idrok etishda nazariy ma`lumotlarning ahamiyati.

Ijodiy o`qish metodi xususiyatlari.

O`quv qo`llanmalari haqida ma`lumot.

Kitobxonlar konferentsiyasini o`tkazish.

Adabiyot darslarining o`ziga xos xususiyatlari.

Adabiyot o`qituvchisiga qo`yiladigan umumiyl talablar.

Qadimgi Turkistonda adabiyot o`qitish tarixi.

Adabiyot o`qituvchisining kasbiy hamda axloqiy-ma`naviy fazilatlari.

Dramatik asarlarni o`rganishda asar tiliga e`tibor berish.

Badiiy tahlil turlari.

Sinfdan tashqari o`qishni uyushtirish.

XX asrning 30-50-yillaridagi dastur va darsliklar.

Ifodali o`qishga o`rgatish metodikasi.

Dars tahliliga qo`yiladigan pedagogik talablar.

Dastlabki darsliklar.

Ifodali o`qish- ta`lim berish vositasi.

Fakultativ mashg`ulotlarning o`ziga xosligi.

Adabiyot o`qitish metodlari.

Badiiy tahlilning pedagogik asoslari.

Sinfdan tashqari ishlarning turlari.

Istiqlol davrida adbiy ta’limga munosabat.

Epik asar qahramonlarini tahlil etish.

Ko`rsatmali qurol turlari va ulardan samarali foydalanish.

Turli sinflarda yozuvchi tarjimai holini o`rganish.

Adabiyot bo`yicha yozma ishlarning pedagogik zaruriyat.

YOzma ish turlari va uni o`tkazish yo`llari.

Adabiyot o`qitishning mazmuni.

Yakuniy mashg`ulot-badiiy asarni o`rganishning zarur bosqichi.

Dasturning tarkibi va mazmuni.

Adabiyot o`qitish metodikasining pedagogik fanlar tizimidagi o`rni.

Evristik metodga xos jihatlar.

Badiiy asar tahlili bosqichlari.

Adabiy uchrashuvlar o`tkazish.

Ko`rsatmali qurol adabiy materialni o`zlashtirishni yaxshilash vositasi sifatida.

Dastlabki darsliklar.

Epik asarlardagi lavhalar ustida ishslash.

Yangi usul maktablarida adabiyot o`qitish.

Ijodkor tarximai holi va uning uslubi o`rtasidagi aloqadorlik.

Inshoga reja tuzish yo`llari.

Adabiyot darslarida o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish.

Badiiy asarning tilini o`rganish.

Yillik mavzuli reja tuzishga qo`yilgan talablar.

Bir soatlik dars uchun reja-ko`chirma tuzishga qo`yilgan talablar.

Lirik asarlarni o`rganishdagi pedagogik texnika.

Adabiyotdan fakultativ mag`ulotlarning asosiy vazifasini belgilang.

Ifodali o`qish to`garagini tashkil.

YOzma ishlarning inson shaxsi takomilidagi roli.

Inshoni baholash.

Inshoning pedagogik maqsadiga ko`ra turlari.

Inshoning mavzusiga ko`ra turlari.

- Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning turlari.
- Dars tahlilining turlarini belgilang.
- Dramatik asar tahliliga qo'yilgan talablar.
- Dastur davlat hujjati sifatida.
- Epik asarlardagi tahlil turlari.
- Sho'ro davrida adabiyot o'qitishning siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilganligi.
- 97.Ijodiy metodlar tasnifi.
- 98.Asar sujeti va kompozitsisini o'rghanish.
99. "Muallif izidan» tahlil.
- 100.Mustaqillik va adabiyot o'qitish metodikasi fanining rivojlanish xususiyatlari.

TEST SAVOLLARI

Adabiyot o'qitish metodikasi adabiyotshunoslik turkumidagi qaysi fanlar bilan aloqador?

Etnografiya, tarix, adabiyot nazariyasi
 Ona tili, o'lakashunoslilik, adabiy tanqid
 Geografiya, astronomiya, matematika
 *Adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot nazariyasi

Har bir kalla

Har bir bosh

Jaholatdan qo'rqliishi kerak.

Har bir bola

Har bir yosh

Navoiyni o'qishi kerak ... She'r muallifini toping.

E.Vohidov

M. Yusuf

*S.Sayid

A.Oripov

" Adabiyot o'quvchini tarbiyalash uchun uning ongi, fikrigagina emas, qalbiga va tuyg'ularigagina ta'sir etishi kerak..." Ushbu fikrlar muallifi ?

*O. Sharafiddinov

G'. Karimov

O.Matchon

B.To'qliyev.

Insonning qo'liga bir dona baliq ber – u bir kun to'q bo'ladi, unga baliq tutishni o'rgat – u butun umr to'q yuradi" Ushbu maqol qaysi xalq adabiyotiga mansub?

Yunon adabiyoti

Yapon adabiyoti

Qozoq adabiyoti

*Xitoy adabiyoti

Badiiy adabiyotni o`rganishdan maqsad...

*Inson ruhiyatini, uning shaxsiyatining shakllantirish va rivojlantirish

Inson xotirasini mustahkamlash

Insonni jismonan rivojlantirish

Aqliy rivojlantirish

Tahlil uchun qo`yiladigan asosiy talab nimadan iborat?

*Ilmiylik

Metodik

Filologik

Lingvistik

Adabiy asarni o`rganish bilan bog`liq bo`lgan dastlabki qaydlar qaysi yodgorliklarda uchraydi?

O`rxun yodnomalari

Buxoriy hodisalar

**“Avesto”

Yassaviy hikmatlari

”Adabiyot yashasa – millat yashar “ degan fikr muallifi?

Qodiriy

*Cho`lpon

Fitrat

Behbudiy

Mahmudxo`ja Behbudiy ta`lim haqida qanday fikrlarni bildirgan?

Ibtidoiy sinflarda ibodati islomiya

Ta`lim jarayonidagi o`qituvchi va ota-onalar munosabati

Ta`limni tashkil etish

*Ta`lim mazmuni, ta`limni tashkil etishning o`ziga xosliklari, ta`lim jarayonidagi o`qituvchi va o`quvchilarining munosabatlari

Ilmlarning kelib chiqishi risolasining muallifi kim?

*Forobiy

Buxoriy

Beruniy

Xorazmiy

” She`r ma’lum bo`laklarga bo`linib, oldinma – ketin bazaravar vaqtida o`qiladigan bo`lishi lozim” ... she`r haqida ushbu fikrni bildirgan muallifni ko`rsating?

Forobiy

*Buxoriy

Beruniy

Xorazmiy

Ayrim adabiy namunalarning inson ruhiyatiga kuchli ta’sir qilishini kuzatgan qomusiy olimni ko`rsating.

*Ibn Sino

Buxoriy

Forobiy

Xorazmiy

XI asrgacha bo`lgan turkiy ta'lim-tarbiya tizimi haqida ayrim ma'lumotlarni beruvchi asarni belgilang.

*M.Qoshg'ariy "Devonu lug'otit-turk"

Yusuf xos Hojib «Qutadg'u bilig»

Ahmad Yassaviy «Devoni hikmat»

Ahmad Yugnakiy «Hibatul-haqoyiq»

Ko`z bilan ko`rgan eshitgandan afzal degan aqidaga rioya qilgan qomusiy olim kim?

*Abu Rayhon Beruniy

Forobiy

Ibn Sino

Al Xorazmiy

"Avesto", "Kalila va Dimna", arab va hind adabiyotiga oid misollarni tahlil qilib ulardan o`rnak va namunalar olishga chaqirgan olim.

Al Xorazmiy

Ogahiy

Ibn Sino

*Abu Rayhon Beruniy

O`zbek adabiyotini o`qitish metodikasida asosan, qachon fan sifatida shakllandi va rivojlandi?

*XX asrning 10-yillarida

XX asrning 20-yillarida

XIX asrning oxirlarida

XVIII asrning o`rtalarida

Eng qadimgi maqol namunalari qaysi asarda uchraydi ?

"Qutadg'u bilig"

*"Devonu lug'otit-turk"

"Devoni hikmat"

"Hibatul-haqoyiq"

Qaysi asarda bilim olib mustaqil mushohada yurita olmaydigan insonni " ustiga kitob ortilgan eshak " ga qiyoslaydilar ?

"Devioni lug'otit turk "

*"Mahbub ul-qulub "

"Layli va Majnun"

"Hayratul abror "

Navoiy kim haqida ushbu fikrlarni bayon etgan , masnaviy va qasida , g'azal har she'rdin xo'b va ko'p yodida ?

Jomiy

S. Ardasher

Lutfiy

*P. Muhammad

A .Navoiyning qaysi asarida " Mudarrislik zikrida "degan alohida fasl ajratgan?

* "Mahbub ul – qulub"

"Layli va Majnun"

“Hayrat – ul abror”

“Arbayin”

Behbudiy dastlab o`zining qaysi asarida ma’rifatning inson hayoti, insoniyat taqdiri uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishini badiiy jihatdan tadqiq etdi?

“Ikki emas to’rt til lozim”

* “Padarkush”

“Qotili Karima”

“Maktab jug’rofiyasi”

Toshkentdagи dastlabki usuli jadid maktablarining tashkil etilishi qaysi ma’rifatparvar nomi bilan bog’liq?

*Abdulla Avloniy (1904)

Tavallo (1905)

Behbudiy (1911)

Munavvarqori (1905)

1918 yilda “Maorif” jurnalida qanday dastur e’lon qilindi?

*V-VIII sinflar uchun ona tili va adabiyoti dasturi

VI-VII sinflar uchun ona tili va adabiyoti dasturi

X-XI sinflar uchun adabiyot dasturi

X-VIII sinflar uchun matematika dasturi

“Engil adabiyot”, “Qiroat kitobi”, “O’qish kitobi” darsliklarining muallifini ko`rsating.

Mirzo Ho`qandiy

Mahmudxo`ja Behbudiy

*Hamza Hakimzoda Niyoziy

Abdurahmon Sa`diy

Adabiyot o`qitish metodikasiga oid dastlabki mustaqil tadqiqot qanday nomlangan?

Adabiyot o`qitish metodikasi

*Adabiy o`qish metodikasi

Adabiyot qoidalari

O`zbek adabiyot darslari

“Adabiy o`qish metodikasi” kitobining muallifini ko`rsating.

Firat, So`fizoda

Elbek, Munavvarqori

Behbudiy, Cho`lpon

*S.Dolimov, H.Ubaydullaev

“Maktabda G’afur G’ulom hayoti va ijodini o`rganish” nomli o`quv qo’llanmaning muallifini ko`rsating.

Qudrat Ahmedov

*Asqar Zunnunov

Safo Matchonov

Marg’uba Mirqosimova

“Ta’lim to`g’risida”gi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilingan?

1996 yilda
*1997 yilda
2001 yilda
1991 yilda

Toshkentdagি dastlabki usuli – jadid maktabining tashkil etilishi kimning nomi bilan belgilanadi?

Fitrat

Behbudiy
*Avloniy
Qodiriy

“O’quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari» o’quv qo’llanmasi muallifini ko’rsating.

Safo Matchon

Qozoqboy Yo`ldoshev
*Marg’uba Mirqosimova

Boqijon To`xliev

“Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari” o’quv qo’llanmasining muallifini belgilang.

*Qozoqboy Yo`ldoshev

Boqijon To`xliev

Safo Matchon

Qudrat Ahmedov

Badiiy asarni o’qishning qanday turlari bor?

Xor bo`lib o`qish, adabiy o`qish

Ovoz chiqarmasdan o`qish, sharhlab o`qish

Guruh bo`lib o`qish, rollarga bo`lmasdan o`qish

*Adabiy o`qish, sharhli o`qish, yakka o`qish, rollarga bo`lib o`qish.

Badiiy asar matnini tahlil qilishning qanday shakl va usullari mavjud?

*Kirish va yakunlovchi mashg’ulotlar

Fakultativ mashg’ulotlar

To`garak mashg’ulotlari

Qo’shimcha mashg’ulotlari

Kirish mashg’ulotlari darsning qancha qismini qamrab olishi mumkin?

3 minutdan 15 minutgacha

20 minutdan 30 minutgacha

5 minutdan 80 minutgacha

*15 minut va butun boshli dars

Qaysi jurnal 1987 yil iyun oyida “Maktab va adabiyot” mavzuida bahs uyushtirgan?

* “Sharq yulduzi” jurnali

“Guliston” jurnali

“Til va adabiyot ta’limi” jurnali

“O’zbek tili va adabiyoti” jurnali

Hozirgi adabiy ta’limning mazmuni qaysi me’yoriy hujjatda ifoda etiladi?

*Dasturda

O`quv qo`llanmada

Darslikda

Uslubiy qo`llanmada

Dastur qanday qismlardan iborat?

Dastur materiali

Yakunlash, ko`rsatmali quroq

Kirish, o`quv va metodik adabiyotlar

*Dastur materiali, materialni o`rganish tartibi, mashg`ulot miqdori

Adabiyot darsliklariga qo`yilgan talablar nimadan iborat?

O`quvchilarga hamma narsani aytib beradigan yo`sinda

Ularni o`ylashga majbur etmaydigan

Muayyan aqliy zo`riqishini talab etmaydigan

*O`quvchilarga hamma narsani aytib beradigan yo`sinda emas, ularning o`ylashga majbur etadigan, aqliy va ma`naviy zo`riqishni talab qiladigan

Dasturga qo`yilgan talablarni ko`rsating.

Tarbiyaning talabga muvofiq bo`lishi

Badiiy jihatdan bo`sh bo`lishi

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik

*Tarbiya talabiga muvofiq bo`lishi, o`quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo`lishi, badiiy jihatdan yuksak bo`lish

Badiiy tahlil turlarini ko`rsating.

Ilmiy-filologik

O`quv-didaktik

Falsafiy

*Ilmiy-filologik, o`quv-didaktik

O`quv-didaktik tahlil tahlilchilar miqdoriga ko`ra necha turga bo`linadi?

4 turga

1 turga

5 turga

*3 turga

Badiiy tahlil bosqichlarini ko`rsating.

Asar haqida gapirib berish, tahlilni umumlashtirish

Asarni o`qib berish, asarni tahlil qilish

*Asar bilan tanishish, asarni tahlil qilish

Asar yuzasidan savol-javob uyuştirish, obrazlarga xarakteristika berish

Dars tahlilining qanday turlari mavjud?

Metodik, filologik, didaktik, ilmiy

Falsafiy, didaktik, ilmiy, psixologi.

Psixologik, filologik, ilmiy, falsafiy

*Ilmiy, metodik, didaktik, umumpedagogik

Insho qanday tahlil qilinadi?

Adabiy insho, adabiy-ijodiy insho

Og`zaki insho, yozma insho

*Pedagogik maqsadga, shakliga, mavzusiga va janriga ko`ra

Tasviriy insho, muhokama insho, taqriz insho

Reja nima?

O'quvchining inshoda yoritmoqchi bo'lган mavzuni atroflicha bilishi
Materialarni saralab, yozma ifodalashni uddalay olishi
O'quvchi fikrini muayyan yo'nalishga qarata olishi vositasi
*O'quvchining mavzu yuzasidan bilganlarini chegaralash, muayyan tartibga solish,
tizim holiga keltirish, obrazlar, asar uslubi haqida xulosa chiqarish vositasi

Adabiyot to'garagida ko'pi bilan qancha o'quvchi ishtirok qilishi kerak?

*15-20 nafar

10-14 nafar

20-25 nafar

10-15 nafar

Fakultativ mashg'ulotning asosiy o'ziga xosligi nimada?

Majburiyligida

*Ixtiyoriyligida

Baholanishida

Tanlab yozilmasligida

Adabiyot bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning qanday turlari mavjud?

Festivallar, adabiy montaj, vistavkalar, adabiy quroq

*Adabiy uchrashuv, adabiy bahs, adabiy ko'rgazmalar, adabiy kechalar, adabiy konferensiylar

Adabiy bahs, shou, vistavka, adabiy quroq

Adabiy konferensiya, bahs, munozara, adabiy uchrashuv

Ifodali o'qish deganda nima tushuniladi?

Tinish belgilarini o'rinni qo'llash

Mantiqiy urg'uni o'rinni qo'llash

Ovoz tovlanishlariga e'tibor berish

* Asar mazmunini o'quvchiga yetkazish vositasi, muallif nazarda tutgan ta'sirni
o'tkazish yo'li

Metod tushunchasi haqidagi dastlabki qarashlar qaysi pedagog nomi bilan bog'liq?

*XIX asrning boshlarida yashab o'tgan rus pedagogi F.I.Buslaev

XX asrning 40 yillarida yashagan rus metodisti V.V. Golubkov

XX asrning 60 yillarida yashagan rus olimi M.N.Skatkin

XX asrning boshlarida yashab o'tgan o'zbek ma'rifatparvari Behbudiy

Adabiyot dasturida material qanday turlarga bo'lib beriladi

*Adabiy materiallar, didaktik materiallar

Metodik materiallar, nazariy materiallar

Ilmiy materiallar, didaktik materiallar

Adabiy materiallar, ilmiy materiallar

Maktab adabiy ta'limida ijodkorlar umrbayoni qanday sababga ko'ra o'rganiladi?

Adibning pozitsiyasini tushunish uchun

Adib asarlarida uning shaxsiyati borasidagi ma'lumotlar borligi uchun

*Adiblar millat ahlining diqqat e'tiborida turgan kishilar, ularning shaxsiy hayoti va
tabiatida o'quvchilar uchun namuna bo'ladigan jihatlar ko'pligi uchun

Adiblarning hayot yo`li ularning asarlarida o`z nuqsini topganligi uchun

M U N D A R I J A:

1. Adabiyot o`qitish metodikasi fan sifatida	2
2. Turkistonda adabiyot o`qitish tarixi	4
3. . Adabiy ta`lim asoslari	13
4. Adabiy ta`lim metodlari	17
5. Adabiy-nazariy tushunchalarni o`rgatish	
6. Adabiy ta`limda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish	21
7.Ijodkor tarjimai holini o`rganish	25
8. Ifodali o`qitish metodikasi	28
9. Badiiy asarning o`quv tahlili	40
10. Adabiyot o`qitishda ko`rsatmali qurollardan foydalanish	43
11. Adabiyotdan sinfdan tashqari ishlar	46
12. Adabiyotdan fakultativ mashg`ulotlar	48
13. Adabiyot to`garagi faoliyatini tashkil etish	
14. Adabiyot darslarini tahlillash	
15. Yillik mavzuli reja tuzish	
16. Bir soatlik darsning reja-ko`chirmasini tuzish	

17. Yozma ishlar va ularni o`tkazish53
18. Yozma ishlarni tekshirish va baholash55